



Tadqiqot **UZ**

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**№22**

30 ноябрь

**conferences.uz**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
8-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
22-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-8**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
22-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-8**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 22-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 36 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

<b>1. Amanbayeva Gulsara Shodmonovna</b> FURQAT XALQCHIL VA SERMAHSUL IJODKOR.....	7
<b>2. Sharipova Sunbula Ahad qizi, Saitqulova Husnora Ahad qizi</b> MILLAT VA MILLIYAT JONKUYARI.....	8
<b>3. Чулиева Нилуфар Азам қизи</b> НАЗАР ЭШОНҚУЛНИНГ “УРУШ ОДАМЛАРИ” ҚИССАСИДА ХРОНОТОП ШАКЛЛАРИ.....	10
<b>4. Aytmetova Shohida Artiqboyevna</b> ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHI LAR PSIXOLOGIYASIGA INDIVIDUAL YONDASHISH SAMARADORLIGI.....	13
<b>5. Xolisa Jumaniyozova Nazirboyevna</b> BUYUK TARIXIMIZ OGOHIY NIGOHIDA.....	15
<b>6. Айдаралиева Малоҳат</b> SOCIAL DESCRIPTION IN AMERICAN SHORT STORIES.....	17
<b>7. Djo‘rayeva Dildoraxon Ne‘matjonovna</b> OGHIY LIRIKASIGA FOLKLORNING TA‘SIRI.....	19
<b>8. Ma‘murova Nilufar Raxmatullayevna</b> “XAZOYIN UL-MAONIY”DA HUSAYN BOYQARO TALQINI.....	21
<b>9. Ahmadaliyeva Munojat Ismoilovna</b> BADIY ADABIYOTDA TIL XUSUSIYATLARI.....	23
<b>10. Jurayeva Mohlaroyim Elmurodjon qizi</b> ZULFIYA ISROILOVA IJODIDA POETIK TAHLIL.....	25
<b>11. Mirzamurotova Munosibxon Mo‘ydinovna</b> ABDULLA ORIPOV SHE‘RIYATIDA BADIY MAHORAT.....	28
<b>12. Siddiqova Sohibjamol No‘monjon qizi</b> ADABIY TA‘LIMDA TOG‘AY MUROD QISSALARI ASOSIDA MILLIYLIK TASVIRI TAMOIYILLARI.....	30
<b>13. Болтабаева Хатичахон Кутбиддиновна</b> ALISHER NAVOIY ASARLARINING MAKTAB O‘QUVCHILARI UCHUN TARBIYAVIY AHAMIYATI.....	32
<b>14. Шарипова Сохибахон Косимжоновна</b> ALISHER NAVOIY MEROSIDA UMUMINSONIY TARBIYA MASALALAR.....	34



## АДАБИЁТ

### FURQAT XALQCHIL VA SERMAHSUL IJODKOR.

*Amanbayeva Gulsara Shodmonovna  
Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani  
12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Telefon: 97 219 22 27*

**Annotatsiya:** Furqat XIX asr ikkinchi yarmida o'zining ijodi tur va mavzu va shakl rangbarangligi jihatidan ham, sermahsulligi jihatidan ham diqqatga sazovordir. Mazkur maqolada uning she'rlarida xalqchilik va ijodining rang-barangligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Furqat, "Bo'ldi" radifli muhammas, ijtimoiy ohang, "Nuh manzar".

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi o'zbek xalqchil adabiyotining yirik namoyondasi, ma'rifatparvar, lirik shoir, otashin publitsist Zokirjon Furqat Qo'qon shahrida, Mullo Holmuhammad oilasida dunyoga kelgan. Bo'lajak shoirning otasi zamonasining ilg'or fikrli vakillaridan biri sifatida turli bilimlardan yaxshigina xabardor bo'lgan. Zokirjon mahallasidagi maktabda tahsil ko'radi, ayni zamonda otasi yordamida mustaqil mutolaa orqali o'zbek va fors adabiyotining buyuk namoyondalari merosini, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini chuqur o'rganadi, forsiy tilni mukammal o'zlashtiradi. Zokirjon o'zi yozgan tarjimayi holida qayd etganidek, to'qqiz yoshidayoq qog'oz sahifasiga quyidagi misralarni bitib, muallimining olqishlariga sazovor bo'lgan:

Mening maktab aro buldur murodim,

Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim,

Zokirjon Yangi Marg'ilonda ijodkor sifatida to'la shakllandi, o'z g'azallariga "Furqat"- "ayriliq" tahallusini qo'yib, shuhrat qozona boshladi.

Furqatning Qo'qondagi ijodi tur va mavzu, mazmun va shakl rang barangligi jihatidan ham, sermahsulligi jihatidan ham diqqatga sazovor. U mumtoz she'riyatimiz an'analari ruhida ko'plab ishqiyy g'azallar, muhammaslar, Navoiy asarlariga go'zal nazira va taqlidlar yaratdi, chuqur xalqchilik va zamonaviylik uning she'rlarida tobora keng o'rin egallay boshladi. Uning "Bo'ldi" radifli muhammasida mavjud mustamlaka tuzumining illatlari, tobora keng quloq otayotgan o'sha davr munosabatlarining salbiy oqibatlarini badiiy ifodasini topgan.

Qo'qon xonligining uzil-kesil tugatilib, mustamlakaga aylantirilishi voqeasi bilan bog'liq "Demish xon bir kunkim, davr-u davronlar qayon qoldi?" misrasi bilan boshlanuvchi muhammasi ham Furqatning shu davr ijodining mahsulidir. Xudoyorxon nomidan bitilgan bu asar ham shoir ijodida zamonaviy ijtimoiy mavzuning keng o'rnini isbotlovchi dalillardandir.

O'zining guvohlik berishicha, Furqat xuddi shu yillarda "Hammomi xayol" risolasini yaratib, "Chor darvesh" hikoyatini forschadan tarjima qiladi. "Nuh manzar" nomli she'riy kitob yaratadi.

Furqat g'azal va muhammaslarida ijtimoiy ohanglar ham ko'rinarli o'rin tutadi. Mustamlaka tuzumining illatlarini qoralash, joriy adolatsizlik va zo'ravonlikdan, huquqsizlik va nochor hayotdan, nodonlarning zamonada e'tibor topib, donolarning, halol kishilarning xor-zor etilishidan norozilik badiiy bo'yoqlarda jaranglaydi:

Charxi kajraftorning bir shevasidan dog'men,

Ayshni nodon surub, kulfatni dono tortadur,

Sarig' oltun kasrati ko'ngulni aylaydur qaro,

Chunki safro bo'lsa g'olib, o'zga savdo tortadur.

Mazmunan hayotiy va badiiy barkamol lirikasi, ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi yetuk asarlari bilan, jozibali nasri va jangovar publitsistikasi bilan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi milliy adabiyotimiz rivojiga ulkan xissa qo'shgan Zokirjon Furqat 1909-yilda og'ir kasallikdan so'ng vafot etdi. Uning jasadi Yorkentning Dongdor mahallasidagi qabristonga qo'yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Abdug'ofurov "Furqat" Manaviyat yulduzlari "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2011



## MILLAT VA MILLIYAT JONKUYARI

*Sharipova Sunbula Ahad qizi*

*SamDU tadqiqotchisi*

*Tel.: +99899 5546729*

*e-pochta: sharipovasunbula1621@gmail.com*

*Saitqulova Husnora Ahad qizi*

*Urgut tumani 84-umumta'lim maktabi*

*boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

*Tel.:+998993541104*

**Annotatsiya.** Jadidchilik harakatlari namoyondasi Muhammadxo'ja Behbudiyning xalqimiz ozodligi va ma'rifati tarixida tutgan o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada Muhammadxo'ja Behbudiyning ma'rifatchilik harakatlari, ilm olmoqlik zarurati haqidagi qarashlari, millat birligi mavzusidagi fikrlari tahlil etiladi, fikrlar Behbudiyning maqolalari va ijod namunalari orqali asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** ma'rifatparvarlik davri, Ismoil Gaspirali, "usuli jadid", muxtoriyat, ta'lim islohoti.

Buyuk mutafakkir, Turkiston jadidlarining sarkori, *"uyg'onish davri o'zbek adabiyotida birinchi o'rinni olurg'a loyiq zot"* (Hoji Muin ibn Shukrullo), puplisist, tilshunos, *"xizmatlari zamonasining Jan Jak Russolari ila bir"* (Laziz Azizzoda) bo'lgan, *"o'zbek teatrining asosini qo'yib bergan"* (B.A.Pyatkovskiy), *"ustodi oliyshon"*, *"ajubai davron"*i (Sadridin Ayniy) bo'lgan Muhammadxo'ja Behbudiy va unga maslakdosh bo'lgan barcha jadidchilik harakatlari namoyondalarining nomlarini tarixga abdiy muhrlagan jihat bu vatanparvarlik, uning taqdiriga o'zni dahldor sezishlik hissidir. Jadidchilik harakatlarining yana bir yetuk namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy o'zining *"Turkiy guliston yoxud axloq"* asarida shunday yozadi: *"Agar ahmoq odam bo'lsa, o'z tug'ishgan birodaringni ham sevmalik mumkin, lekin Vatanni, u qanday bo'lmasin, svmaslik mumkin emas. Ammo bu muhabbat uning mavjud ahvolidan bir umr mamnunlik bo'lib qolmasligi, balki uni mukammallashtirishga chanqoq intilishdan iborat bo'lmog'i lozim"*. Darhaqiqat, ana shu Vatanga muhabbat va uni rivojlantirishga intilish tuyg'usi Behbudiy va boshqa ziyoli ma'rifatparvarlarni jadidchilik harakati ostida birlashtirdi. Jadidchilik harakati ham zamon, ham muhit nuqtai nazaridan qanchalik mashaqqatlarga uchraganini biz ehtimolki, tinch va osuda istiqloq zamonida yashayotganimiz uchun aynan his eta olmaymiz. Ammo chuqurroq tahlil etib ko'rsak, har lahza tichlikka tajovvuz xuruj qilib turgan zamonamizda hushyor va ogohlik naqadar zarurat ekanligiga, osuda kunlar zamirida ajdodlarimizning qanchadan-qancha kurashlari, to'kilgan qonlar, berilgan qurbonlar yotganligiga amin bo'lamiz. O'z-o'zidan ma'lumki, ma'rifatparvarlar uchun eng katta to'siq mustamlakachi hukumat edi, lekin bid'at va xurofatga berilgan, yangilikni yoqlamas o'z millatdoshlari bo'lgan qadimchilar istilochilar istibdodidanda ko'proq iztirobga solgani aniq. Millat milliyatdan uzoqlashib, toboro inqiroz va yo'qsillik sari yuz tutib borishi Behbudiy va uning maslakdoshlarini ta'limni isloh etish, xalqqa haq-huquqini tanitish, zamona hodisotlaridan xabardor etishga undadi. Behbudiy: *"...haq olinur, lekin berilmas. Inchunun, muxtoriyat-da olinur, lekin berilmas. Ya'ni Muxtoriyatni Turkiston bolalarining o'zi birlashib, g'ayrat ila olurlar. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo'lidan kelsa bermaslar..."*, deydi va barcha qardosh ellarni millati va dinidan qat'iy nazar ittifoq bo'lishga chorlaydi. Boshqa xalqlar dunyoning narigi tarafidagi qardoshlari bilan birlashishga shijoat ko'rsatib turgan zamonda *"biz o'z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, ahmoqlikdur. Turk tomirig'a bolta urmoqlikdur!"*, deya jon koyitadi "Hurriyat" gazetasi(1918-yil, 26-yanvar)dagi murojaatida.

Behbudiy boshqa maslakdoshlari kabi jadidchilik harakatlarining asoschisi Ismoil Gaspirali yo'lga qo'ygan "usuli jadid" maktablarini Turkistonda tashkil etishda hamda ularni tegishli darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlash ishlarida juda faol bo'ldi. bu mavzularda ko'plab maqolalar e'lon qildi. "Muntahabi jo'g'rofiya umumiy" (qisqacha umumiy geografiya) "Kitobat-ul atfol" (bolalar maktubi), "Tarixi muxtasari islom" (Islomning qisqacha tarixi), "Amaliyoti islom", "Muxtasari jo'g'rofiyai rusiy" (Rossiyaning qisqacha geografiyasi) kabi darsliklar yaratdi. Nashriyot taskil etib, darslik va qo'llanmalar, xaritalar bosib chiqardi. Bular ilk o'zbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qo'llanmalar sifatida emas, til yozuv madaniyati taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham



muhim ahamiyatga ega. Samarqandda “usuli jadid” maktablarini tashkil etdi.

Maxmudxo‘ja Behbudiyning “usuli jadid” maktabidagi o‘qitish ishlari quyidagi ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqich – ibtidoiy qism, deb nomlanib, tahsil muddati to‘rt yilni tashkil etgan. Maktabning ikkinchi bosqichi – rushadiya atalib, bunga ibtidoiy qismni tamomlaganlar o‘tkazilar edi. Behbudiy maktabida har yilning oxirida imtihonlar tashkil qilinadi, imtihonlarga, albatta, ota-onalar va boshqa mehmonlar ham taklif qilinib turilgani ma‘lum. Bu birinchi maqsad “usuli jadid” maktablarini ko‘proq targ‘ib qilish va uning o‘qitish tartiblarini ko‘rsatish bo‘lsa, ikkinchidan, maktabni hayotiyroq qilish, ya‘ni oila va maktab birligini amalga oshirish edi. Maktab tarbiyasi bilan oila tarbiyasi birga olib borilsagina ko‘zlangan natijaga erishilishiga katta e‘tibor qaratilgan

Behbudiy o‘zining qator asarlari va maqolalarida ta‘lim tizimi, undagi muammolar, zaruratga aylangan islohotlar haqida atroflicha mushohadalar yuritadi. “Imon va islom”, “Ixtiyoji millat”, “Buxoroda usuli jadida”, “Hurriyat – ozodlik – erkinlik”, “Tahsil oyi”, “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Turkiston”, “Millatni kim isloh etar”, “Yoshlarga murojaat”, “Vatanparvarlik kerak”, “Bizni kemiruvchi odatlar”, “Buxoro xonligiga sayohat”, “Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyning yo‘li”, “Bizga isloh kerak” va boshqalar shular sirasiga kiradi.

Zamonaning talabi ilm o‘rganish, shu orqali yo‘qsil, huquqi ezilgan, moli talangan xalqni oyoqqa turg‘azish edi. Behbudiy bu xususda “Padarkush” dramasi *Ziyoli* tilidan shunday yozg‘iradi: **“Hozir yangi va boshqa bir zamonadur. Bu zamong‘a ilmsiz va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo‘lidan ketgandek, axloq va obro‘vi ham qo‘ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo‘lur. Buning uchun biz musulmonlarning o‘qumoqg‘a sa‘iy qilmog‘imiz lozimdur. Vaholangki, dini sharifimiz har na‘v naf‘lik ilm o‘qumoqni beshikdan mozorg‘acha bizlarga farz qilg‘andur. Bu hukm hukmi shariatdur”**. Behbudiy ilmsiz xalqning nafaqat moli, huquqi talanadi, undan ham yomoni axloqi va hatto diniga ham putur yetishini aytganda qanchalar haq bo‘lganini sho‘rolar davrida milliy qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz tazyiq ostida qolgani misolida ko‘rinib turibdi. Xalq ba‘zilari tushundi, ba‘zilari jadidchilarning jon kuydirishlariga **Boy** (“Padarkush”) kabi “hamyoza<sup>1</sup> tortgancha” loqaydlik, mudroq, beg‘amlilik munosabatini bildirdi. Ajdodlari ikki qutbda yurt so‘ragan, ilmi va diyonati bilan dunyoni hayratda qoldirgan millat farzandlarini ayanch holatdan chiqarish hayot va momot masalasi edi.

Albatta, bunday faollik, jonkuyarlik ortidan boshida necha bor kaltak sinishiga qaramay Muhammadxo‘ja Behbudiy serqirra faoliyat olib borishdan to‘xtamadi. Uning vafoti Turkiston uchun katta judolik edi. Muhammadxo‘ja Behbudiy bugungu kunda dolzarb mavzularni yoritish borasida dramaturg va teatr ahliga, faolligi va haqso‘zligi bilan jurnalistlarimizga, uzoqni ko‘ra bilishi va xalqparparlik borasida siyosatdonlarimizga, o‘z ustida izlanish, yangilikka intilish, yuqori samaradorlikka erishish, kasbga muhabbat bobida bugungi kun o‘qituvchisiga, tinmay izlanish, ilmiga amal qilish bobida olimlarimizga, chin vatanparvar sifatida barcha avlodlarga namuna bo‘la olgan buyuk shaxsdir. Uning xotirasiga bag‘ishlab zamondosh adiblardan Sadridin Ayniy:

Sani mundin buyon Turon ko‘rolurmu, ko‘rolmasmu?  
Saning mislingni Turkiston topolurmu, topolmasmu?!  
San, ey ustodi oliyshon, eding a‘jubai davron,  
Otingni tilga har inson, buyuk hurmat-la olmasmu?!  
Saning tarixi davroning, saning osori irfoning,  
Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha qolmasmu?!<sup>2</sup>

- deb yozganda qanchalar haq! Zero, Muhammadxo‘ja Behbudiy Turkistonning nomi jahon boricha e‘zozlanuvchi, mislsiz og‘lonlaridandir.

Adabiyotlar:

1. Behbudiy. *Padarkush*. // *Sharq yulduzi*. 1989, 7-son.
2. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent: Ma‘naviyat, 2004.
3. Qosimov B. Qalblardan o‘chmagay nur. O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati // 2005-yil, 4-son.

<sup>1</sup> xomuza

<sup>2</sup> Qosimov B. Qalblardan o‘chmagay nur. O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati // 2005-yil, 4-son.



## НАЗАР ЭШОНҚУЛНИНГ “УРУШ ОДАМЛАРИ” ҚИССАСИДА ХРОНОТОП ШАКЛЛАРИ

*Чулиева Нилуфар Азам қизи*  
*ҚаршиДУ, тадқиқотчи*  
*Телефон: +998902895071*  
*nilufarchuliyeva19@gmail.com*

**Аннотация:** Ушбу мақолада замонавий қиссаларда хронотоп шакллари Назар Эшонқулнинг “Уруш одамлари” қиссаси мисолида ўрганилган.

**Калит сўзлар:** хронотоп, анъанавий хронотоп, метафорик хронотоп, сюжет, образ, характер.

Сўнги йиллар ўзбек адабиётида эпик асарларда замон ва макон масаласини ёритган бир қанча илмий асарлар, тадқиқотлар яратилди. Жумладан, И. Султон, М.Қўшжонов, С.Мирвалиев, Д.Қурононов, А.Тўйчиев, А.Расулов, У.Жўрақулов, Б.Тўраева, Ў.Назаров ўз тадқиқотларида бадиий замон, бадиий макон ёки хронотоп масаласига доир қарашларини акс эттирдилар ёки муайян асарлар таҳлилида муносабат билдирдилар.<sup>1</sup>

Бугунги ўзбек қиссаларида замон-макон талқини масаласига айрича ёндашиш, хусусан, улардаги хронотоп шакллари аниқлаш жанри бошқа бир – тўлақонли тарзда текшириш имконини беради. Қуйида Назар Эшонқул қиссалари хронотопини текшириб, мазкур фикрларни бироз ойдинлаштиришга ҳаракат қиламиз.

Адибнинг “Уруш одамлари” қиссасида замон ва макон анъанавий хронотоп шаклида воқеаланган. Қисса воқеалари Терсота қишлоғида кечади. Муаллифнинг аксарият асарлари, жумладан, “Шамолни тутиб бўлмади” ҳикояси, “Тун панжаралари” қиссасида ҳам мазкур қишлоқ номи тилга олинган ва бадиий макон вазифасини ўтаган. “Уруш одамлари” қиссасида тасвирланган замон уруш даври ва унинг одамлар ижтимоий-иқтисодий, руҳий-маънавий ҳаётида қолдирган асоратлари асносида акс эттирилса, макон эса ана шу инсонлар ҳам жисман, ҳам руҳан “ҳаракатланадиган”, яхлитлашган, умумий, ва айни пайтда, реал, яқка жуғрофий объект (Терсота қишлоғи) сифатида тасвирланади. Қисса матнида акс этган Бухор қоялари, қалин ўрмонлар ва уларга туташ қишлоқ тасвири шундай хулоса чиқаришимизга имкон беради. Асарда тоғ одамларига хос дағаллик, самимийлик, ор-номусни, ғурурни устун қўйиш каби маконий феъл-атворнинг индивидуал характер хусусиятлари билан уйғунлашуви қахрамонларнинг миллий қиёфасини янада жонли ифодалашга хизмат қилган.

Асарда мавжуд хронотоп тизимини қуйидагича белгилаш мумкин: қишлоқ хронотопи, Норматнинг ва Бийди момонинг хонадонлари, колхоз идораси, Ҳалил отбоқарнинг кулбаси. Қишлоқ (Терсота) хронотопи асосий ва умумлашма хронотоп бўлиб, у ўз ичига турли ёндош объектлар: қадим тўрт етим уруғи тарқалган Олма, Ёнғоқли, Шибокли, Теракли, Қамаш қишлоқлари; Бухор зовлари (қоялари), дарё, тоғ, шаршара, қир-адир, дала, ҳаёт (томорқа, боғ) каби топономик ва географик ҳудудларни ҳам қамраб олади. Гарчи мазкур қишлоқларнинг номлари матндан жой олган бўлса-да, уларнинг барчаси абстракт моҳият касб этган. Яъни қиссада ҳеч бирининг географик кўриниши конкрет ва муфассал тасвирланмайди. Қиссадаги асосий хронотоп қахрамонлар тақдирлари ҳал бўладиган замонга эга махсус маконларни ўз ичига олади. Масалан, Норматнинг хонадони айнан шундай хронотопдир.

Норматнинг уйи воқеалар бошланадиган, тугун қўйилган микромакон ҳисобланади. Айни шу хронотопда уруш келтирган қайғу ва одамларнинг лахзалик қувончлари зиддияти, Нормат ва Анзират руҳиятидаги тўқнашувлар, этномаданий тасвирлар, авлодларнинг тинчликка бўлган талпинишлари акс этган. Асарнинг фожеавий якуни – Анзират ва Мирзақулнинг ўлими ҳам шу маконда юз беради.

<sup>1</sup> Мирвалиев С. Роман ва замон. – Т.: Фан, 1983; Қурононов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004; Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007; Тўйчиев А. Ўзбек романларида макон ва замон. – Т.: Мумтоз сўз, 2009; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015; Алишер Навоий «Хамса»сида хронотоп поэтикаси: Филол. фан. д-ри. дисс. – Т., 2017; Тўраева Б. Тарихий романларда бадиий замон муаммоси. Филол. фанлари. Фалсафа доктори...дисс. – Тошкент: 2018; Назаров Ў. Омон Мухтор романларида бадиий хронотоп муаммоси: PhD. ...дисс-си. – Бухоро, 2018.



Бийди момонинг хонадони эса асарда, асосан, аёллар образини тасвирлашга қаратилган. Бу хронотопда момо хукмфармонлигининг чегарасизлиги, келинларнинг ўзаро қарама-қарши феъл-атвор соҳибалари эканлиги, ўғилларидан қорахат олган она ва рафиқаларнинг руҳий ҳолатлари, Нормат ва Бийди момонинг воқеаларни фожеъ томонга силжитадиган суҳбат-диалоглари тасвирланади. Момонинг асар сўнггида кўзлари ожиз бўлиб қолиб, одамлардан яккаланиб қолиши ҳам, бир авлоднинг бошига тушган уруш кўргуликлари ҳам айни шу хронотоп орқали ифодаланади.

Колхоз идораси эса кўпчилик бадий асарларда воқелангани каби фронт орти одамларининг машаққатли меҳнатини, қаҳатчилик йилларини тасвирлашга, аскарлар учун зарур озиқ-овқат, кийим-кечак маҳсулотларини жамғаришга қаратилган воситачи макон. Бу хронотоп замоннинг барча сиёсий-ижтимоий белгиларини ўзида намоён этгани билан характерлидир. Шунингдек, қиссада Мирзакул раис “фаолияти” орқали “меҳр-мурувват ниқобини кийган” хронотоп. Раиснинг Анзиратни қандай қилиб ўзига оғдириб олиш режаси ҳам шу хронотопда тузилади.

Колхоз идораси хронотопи асарга Мирзакул раиснинг худбинона истаклари ўлароқ Ҳалил отбоқар кулбаси хронотопини “етақлаб келади”. Ва Мирзакул тузган бадбин режа шу маконда амалга ошади. Натижада, Анзиратнинг ҳаёти шу нуқтадан бошлаб бошқа ўзанда оқа бошлайди.

Асарда ретроспектив усул орқали рамзий-метафорик маъно ташийдиган абстракт макон ҳам тасвирланган бўлиб, бу “урушсиз юрт” хронотопидир. Ўтроқ кўнғиротлар уруғи ва уларнинг оксоқоли Бойхун (Бойсун) бошчилигида ўз ерларини ташлаб, неча йиллар урушсиз юртни ахтарганликлари ҳақида киритма ҳикоя келтирилади. “Урушсиз юрт” хронотопи М.Бахтин таъкидлаган, мифология ва фольклор асарларида шаклланган замоннинг у аниқлаган роман типларига “тарихий инверсия” (ўрин алмашинув) йўли билан ўзлашган хронотоп шаклининг бир кўриниши, дейиш мумкин. Яъни: “...бу ўринда нимаики ўтмишда бўлиб ўтган дея тасвирланса, аслида, келажакда рўй бериши мумкин ёки келажакда рўй беради. Моҳиятан у ўтмиш воқелиги эмас, келажакнинг мақсади, бурчи ўлароқ намоён бўлади”<sup>1</sup>. Қиссада ривоят шаклида берилган ушбу ҳикоядаги абстракт макон – “урушсиз юрт” хронотопи ҳам асар ғояси ва муаллиф ниятига эш бўлгани ҳолда бевосита сюжет вақтидан сизиб чиқиб, асар англамоқчи бўлган туб моҳиятни келажак замонга дахлдор этган. Демак, урушсиз юрт хронотопи ўтмиш инсонларининг тинчликни севиш ва унга интилишидан бунёд бўлган макон бўлиб, бу хронотоп асарда инсониятнинг тинчликсеварлик ҳақидаги азалий, абадий орзуларининг аксидир.

Худди шундай метафорик хронотоп шаклларида яна бири дарё (қирғоқ) ва ҳаёт (томорқа, боғ) хронотопларидир. Муаллиф дарё (Катта сув)ни матнда Анзират образи орқали шундай ифодалайди: “У болалигида Катта дарёнинг қуйроғидаги қишлоқларнинг қандай ёнганини, болалар ва одамларнинг қандай осилганини кўрган эди. Қишлоқларига дарёнинг нариги бетидан бир тўда милтиқ кўтарган одамлар ўтиб келар, қишлоққа қий-чув солар, талар, кетиш олдидан ёқиб, яна нариги қирғоққа ўтиб кетишарди. У болалик тасавури билан қанча кузатмасин, қишлоқдошларига ўлим, кулфат, йиғи олиб келадиган ўша одамлар ҳамиша дарёнинг нариги қирғоғидан ўтиб келишар, яна талаб, уриб, ёқиб қайтиб кетишарди. Ўша пайтлардан бери Анзиратнинг тасавурида нариги қирғоқ (у “нариги бет” дерди) жуда ёмон из қолдирган, у дарёнинг икки бетидан икки хил ҳаётни ҳис қилар, бири тер тўкиб йиғар, иккинчиси талаб кетар – назарида, нариги қирғоқ бахтсизлик келтирадиган қирғоқ эди. Энди эса ўзининг ҳозирги ҳаётини ҳам дарёнинг икки қирғоғига ўхшатар, ҳатто бу даражадаги ўхшашликдан ҳайрон ҳам қоларди. Унинг эри кетгандан кейинги ҳаёти дарёнинг шу қирғоғи – ўлим, очарчилик соя солиб турган, алланечук серкулфат қирғоқ эди”<sup>2</sup>.

Ушбу хронотопни ижодкор мазкур ўринларда Анзират руҳий ҳолатининг, у турган вазият нуқтасининг қанчалар қалтис эканини кўрсатиш мақсадида, дарёнинг икки қирғоғини эса уруш ва осойишталик, зўравонлик ва жабрдийдалиқ хукм сурган маконнинг мажози сифатида қўллайди.

Асардаги ҳаёт (томорқа, боғ) хронотопини эса муаллиф шевадаги сўзни қишлоқ ман-

<sup>1</sup> Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. –Тошкент: Akademnashr, 2015. –Б.33

<sup>2</sup> Эшонқул Н. Ялпиз ҳиди. Қиссалар ва ҳикоялар. –Тошкент: Шарқ, 2008. - Б.58-59



зарасини ўқувчи кўз ўнгида янада конкретлаштириш ва сўз ўйини орқали уни “яшамок, умр” маъносига қўллаб, уруш туфайли ағдар-тўнтар бўлган ҳаётини изга солишга уринаётган Норматнинг жонли қиёфасини тасвирлашга эришган. Шу билан бирга, ҳаёт хронотопи нафақат Норматнинг ҳаёт йўли, балки унинг ўз-ўзи, уруш асоратлари билан курашининг ҳам рамзи ҳисобланади. Мазкур хронотопда Нормат жисмининг нуқсони ва чинакам урушнинг асорати – хотини Анзиратнинг хиёвати ҳақидаги хабар билан тўқнашади. Жумладан, қиссада “Нормат ҳаётининг бир қисмига гўнг ташиган”, Бийди момонинг “ҳаёт ўртасига чўлоқланиб гўнг ташиб юрган Нормат”га аччиқ ҳақиқатни айтган тасвирларда ушбу хронотоп ўзи англаган маънодан бошқа – юқоридагидек метафорик маъноларда ҳам қўлланилганига гувоҳи бўламиз.

Қиссада Маллабой яшайдиган уй хронотопи ҳам бўлиб, Маллабойни учратган Нормат унинг сўзларидан ўзининг “номус, орият, шаън ва ғурур деган тушунчаларидан устунроқ” кадрийат борлигини, бу – фарзандлар бахти-иқболи эканини англашига туртки бўлади. Аммо барибир уруш сояси тушган

юртларни нотинчлик, парокандалик, фожеа тарк етмайди. Қисса ҳам шундай фожеа – одамларнинг ўлими билан якунланади.

Демак, мазкур қисса хронотопи анъанавий шаклда бўлиб, ўзининг хусусий замониغا эга турли микромаконлардан ташкил топган. Ушбу микромаконлар бирлашиб, ягона, умумий бўлган хронотопни ҳосил қилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. –Тошкент: Akademnashr, 2015.
2. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015.
3. Эшонқул Н. Ялпиз хиди. Қисса ва ҳикоялар. –Тошкент: Шарқ, 2008.



## ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHI LAR PSIXOLOGIYASIGA INDIVIDUAL YONDASHISH SAMARADORLIGI

*Aytmetova Shohida Artiqboyevna*  
*Xorazm viloyati yangibozor tumani*  
*1-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*  
*Telefon:998994597376*

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lmish o'quvchilarni adabiyot darslariga qiziqtirish yo'llari, o'quvchi shaxsiga individual yondashganda kutiladigan natijalar, o'qituvchining so'z qo'llash mahorati, o'quvchilarda o'ziga ishonch tuyg'usini shakllantirish omillari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixologik yondashuv , o'quvchiga ishonch bildirish, xatolardan xulosa chiqarishga o'rgatish, shaxsiy ibrat, namuna ko'rsatish, imkoniyat berish.

Bugungi kunda yosh avlod rivojlangan axborot vositalari, internet olamining tezkor axborotlarining shiddatli oqimi orasida ulg'aymoqda. Bugungi kun bolasi loydan narsa yasamaydi, turli rasmlar chizib yer betini yaralamaydi, soya –salqin daraxtlarga suyanib she'rilar yodlamaydi, badiiy asarlar o'qimaydi. Farzandlarimiz she'r yodlash, asar o'qish zavqini seriallar ko'rib zavqlanishga almashtirgan, menimcha. Bu bilan tezkor , axborot vositalari yashin tezligida rivojlanayotgan zamonimizni ,yoshlarimizni tom ma'noda ayblamoqchi emasman. Yosh avlodning qalb ko'zini ochish,ularning aql-zakosi hali tiniq, beg'ubor ekanligini o'zlariga isbotlash uchun har bir pedagogning o'zi bola qalbini angelaydigan darajada qalb ko'zi ochiq bo'lishi kerakmasmikan. O'qituvchilar kuchli psixolog bo'lishi lozim. Darsdagi qaysi o'quvchi sizni qanchalik anglamoqda, darsga diqqati qay darajada, sizning unga munosabatingiz qanday? O'quvchini darsingizga qiziqtirish uchun birinchi navbatda o'rtada samimiy munosabat o'rnatilishi lozim. Bilamizki, ko'pchilik bolalar oila a'zolarining aytganini qilmasa ham, o'qituvchisining aytganini qiladi sababi o'sha o'qituvchi bolaning qalbiga yo'l topa olgan. Ikkinchi tomoni ham bo'lishi mumkin, ayrim o'quvchilar qattiqqo'llik qilish natijasida dars tayyorlashi mumkin, menimcha bu bilim o'quvchi uchun emas , o'qituvchiga aytib berish uchun vaqtinchalik o'quvchi esida qolishi mumkin.

Hayotda turlicha pedagoglarni uchratish mumkin, bolaga bilim bera oladi, ammo o'rtada samimiyat bo'lmaydi,bir chimdim mehr, e'tibor ,yaxshi so'z ,beriladigan imkoniyatlar, bolaga bildirilgan ishonch to'polonchi , darsga e'tiborsiz bo'lgan bolalarni sizning fanningizga beixtiyor bog'laydi,aksincha bo'lsa,sizning darsingiz u uchun zerikarli, qiziqarsiz bo'lishi mumkin.

Ko'p yillik tajribalar asosida shu narsaga amin bo'ldimki, bola psixologiyasiga individual yondashilsa, uning bilimi, o'qishiga alohida e'tibor qaratilsa,umuman , ikki o'rtada samimiyat bo'lsa bola ,albatta, ijobiy tomonga o'zgaradi. Bunga bir –ikkita oddiy misollar keltirib o'tsam. Intizomsizlikda, to'polonchilikda ,bilimsizlikda birinchi o'rinda turadigan o'quvchiga nisbatan berilgan imkoniyat, ozgina e'tibor ,a'lo baho qo'yishda bildirilgan ishonchni oqlash to'g'risidagi samimiylik shu o'quvchining adabiyotga qiziqishini, a'lochi o'quvchilardan qolishmaydigan darajada ifodali o'qiy olish qirralarining kashf etilishiga olib kelgan. Adabiyot darslariga o'quvchilarni qiziqtirish 5- sinfga qo'yilgan ilk darsingizdan boshlanadi. O'quvchi e'tiborini zabt etish uchun birinchi adabiyot darsiga alohida tayyorgarlik ko'ring , ovozingiz jozibasini shunday ko'rsatingki, bola sehrlanib qolsin, adabiyot darsda ular o'zini go'zal bo'stonlarda sayr qilayotgandek, yoki biror sahna asarini miriqib ko'rayotgandek his qilsin. Ilk darsda bolalar qalbida samimiy iz qoldira oldingizmi ,demak marra sizniki, kulol loyni pishitgach o'zi xohlagan narsasini yasagani kabi o'quvchini siz ham o'zingiz istagan odamga aylantira olasiz. Hammamizga ma'lumki, yuqori sinflarga o'ta boshlan sayin o'quvchilarda ,ayniqsa, og'il bolalarda o'tilgan mavzuni so'zlab berish , uyga vazifa tayyorlab kelish erish tuyuladi. Ana shunday paytlarda o'quvchining yoniga borib ,unga ishonch bildirishingiz, unga nisbatan samimiy munosabatingiz, darsga tayyorlanib kelgan kuni shaxsan o'ziga atalgan iliq so'zlar va e'tibor uning ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, "senga ishonaman", "sen uddalaysan", "ovozingda she'r o'qishga moyillik kuchli" ...."barakalla", "ofarin" kabi so'zlar shular jumlasidan. Yoki darslarda faol bo'lgan boshqa o'quvchiga ko'rsatilgan alohida e'tibor ,ibrat tushunchasi boshqalarga ham yuqishi mumkin .Bolaga yomon baho qo'yishga , uning



xulqiga, axloqiga shoshqaloqlik bilan hammaning oldida izza qilishga shoshilmaslik kerak , chunki bizda yomon baho qo'yish uchun imkoniyatlar juda ko'p. Ko'pchilik o'quvchilarda bilim bo'lsa ham uni oshkor qilishga shoshilavermaydi ,ana shu oquvchiga tortinchoqligi tufayli past baho qo'yishga shoshmang ,bu o'quvchi kun kelib sizga munosib o'quvchi ekanligini isbotlaydi.

Adabiyot darklarining o'ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, o'qituvchi o'zidagi ovoz qirralaridan unumli foydalana bilishi , oquvchilarda she'r, ruboiy , g'azal o'qishga qiziqishni o'zi namuna bo'lib shakllantira olishi lozim. O'quvchilarni sahna asarlarini ijro qilishga o'rgatish ham ular bilan individual ishlashni , ulardagi psixologik jarayonlarga to'g'ri yondashishni talab qiladi. Ayniqsa buyuk siymolarning timsolini yaratish jarayonida"senda shu siymoni ko'ryapman" , "sen ,albatta ,uddalaysan" degan ishonchingiz, ularga xos kiyim –kechaklarni to'g'ri tanlab kiydirishingiz, o'sha davr sahna bezaklarini to'g'ri tanlay olishingiz ham o'quvchining ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladi ,o'ziga bo'lgan ishonchini yanada oshiradi , sahnada hayajonlanib turgan o'quvchingizga nigohlaringiz bilan "hammasi yaxshi bo'ladi ma'nosida " qarab qo'yishingiz unga qanot beradi va u buni uddalaydi. Agar buning aksi bo'lsa , u uddalay olmasa-chi, uni asabiylashib , ayblamang ,ruhini aslo sindirmang , kelajakdagi chiqishlariga bu xatosi ibrat bo'lishini ,bugun muhimi uning sahnaga chiqqani ekanligini ayta olsangiz , o'quvchi siz tomanda bo'ladi va ishonchingizni ,albatta , oqlaydi.

O'quvchilarimizga o'z farzandlarimizga qaraganday qaraylik, birozgina e'tibor beraylik, shundagina ular fanimizga qiziqadi, o'zimizni e'zozlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'z faoliyatim natijalaridan.
2. Internet materiallari.



## BUYUK TARIXIMIZ OGOHIY NIGOHIDA

*Xolisa Jumaniyozova Nazirboyevna*  
*Xiva tuman 29-son maktabning*  
*ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*  
*Tel: +99897 364 60 80*  
*jumaniyozovaxolisa@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk ijodkor Ogohiy va uning tarixiy asarlari, tarixiy asarlarning nafaqat biz, qolaversa qardosh xalqlar tarixini o'rganishdagi ahamiyati, bugungi kunda Ogohiy va uning ijodiga berilayotgan e'tabor xususida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm tarixi, tarixiy asarlar, noyob qo'lyozmalar, Xiva xonligi.

Xorazm buyuklar yurti. Bu zamin o'z bag'rida ming –minglab pahlavon o'g'lonlar, buyuk daholar va serqirra ijodkorlarni kamol toptirgan, voyaga yetkazgan. Ana shunday ziyarak nigoh sohibi, o'tli qalam egasi va otashqalb ijodkor, Xorazm faxri Muhammad Rizo Ogohiy ham shu zaminning suyukli dilbandi sanaladi. Ogohiy butun dunyoga zabardast shoir, mohir tarjimon, davlat arbobi va tarixchi sifatida tanilgan, tan olingan. Bu haqida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Xivaning 2500 yillik tantanalaridagi tabrik so'zlarida Xorazm zaminida yetishgan va avlodlar ehtiromiga sazovor bo'lgan buyuk alloma sifatida Ogohiyning alohida ehtirom bilan tilga olib o'tdi. Albatta, bu bejiz emas.

Ma'lumki, Ogohiy 1809- yilning 17 – dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida ma'rifatli va badavlat mirob oilasida dunyoga kelgan. Otadan erta yetim qolib, amakisi Munis qo'lida tarbiya topgan.

Ogohiy haqida to'xtalganda, shoir, tarixchi, tarjimon va mirob sifatida eslaylik. Uning har jihatini eslashga, qadrlashga arzigulik desak mubolag'a bo'lmaydi. Men shu o'rinda ijodkorning faqatgina tarixnavis sifatidagi faoliyati haqida to'xtalishni joiz deb topdim.

Ogohiyning tarixiy asarlari o'zbek tarixnavislik fani taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Ular O'rta Osiya tarixining ajralmas qismi bo'lib, Xorazm tarixini tadbiq etish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Muarraxning tarixiy asarlari tarixni sevishga, qadrlashga, e'zozlashga davat etadi. Chunki tarixsiz kelajak yo'q!

Ogohiy tarixga oid asarlar yaratib, Munisning bu sohadagi an'analarini ham yanada rivojlantirdi va yuksaklikka ko'tardi. Munis va Ogohiy hamkorlikda yozgan "Firdavs –ul iqbol" asari va o'zining Xorazm tarixiga oid beshta asari faqat o'zbek xalqining tarixini o'rganish jihatidan ahamiyatli bo'lib qolmasdan, balki qardosh xalqlarning tarixi, madaniyati, san'ati, urf-odat, psixologiyasi va shu xalqlarning etnografiyasi kabilarni o'rganishda boy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ogohiy Olloqulixonga bag'ishlab "Riyoziy ud –davla" asarini yozgan. Rahimqulixon davriga bag'ishlangan asari esa "Zubdat ut-tavorix" deb nomlanadi va bu asar 1846- yilda yaratilgan. 1856 – yilda yaratilgan tarixiy asari esa "Jome' - ul voqeati Sultoniy" bo'lib, Muhammad Aminxon davriga bag'ishlanadi." Shohidi iqbol "asari Muhammad Rahimxon soniy davriga bag'ishlanadi va bu asarda faqat Xorazm tarixi emas Buxoro amirligi va Qo'qon xonlarini Rossiya bilan olib brogan urushlari, bitimlari va uning oqibatlarini mukammal ravishda yoritilgan. Xullas, Ogohiyning har bir tarixiy asari biz uchun oltinga teng qimmatli manba bo'lib qoladi. Bu asarlar bizga tarixni tanitadi va moziydan saboq beradi. Ogohiy asarlari jihati bilan ham mana necha yillarki o'zining badiiy, ilmiy va tarixiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Hozirgi kunda Ogohiy qalamiga mansub 26 asardan 4 tasi topigancha yo'q, uning asarlarining 22 tasidan 16 tasi saqlangan. Jumladan, 6 tasi Beruniy nomidagi Respublika Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. San Peterburgda 10 ta va Dushanba shahrida 8 ta asari mavjud.

Hozirgi kunda adib asarlarining 72 ta qo'lyozma nusxasi dunyo fondlarida saqlanmoqda. Ogohiyning asarlari bugungi kunda ko'plab asarlarning maydonga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bugun buyuk ijodkorga bo'lgan e'tabor juda katta. Jumladan, Ogohiyning hayoti va ijodiga bag'ishlab ko'plab risolaalar nashr qilindi, o'zi tug'ilib o'sgan qishloqda "Ogohiy uy muzeyi" hamda "Ogohiy ijod maktabi" ochildi. Shuningdek, Ogohiy ijodi minglab ijodkorlar tomonidan tadbiq qilinmoqda. Ogohiyning qabri hozirda amakisi Shermuhammad Munis qabri bilan birgalikda Shayx Mavlona bobo qabristonida joylashgan bo'lib, ushbu joy Xiva yaqinidagi



Qiyot qishlog`ida joylashgan. Biz Ogohiy davomchilari uning qabrini ziyorat qilar ekanmiz shunday buyuk insonning avlodi, yurtdoshi ekanligimizdan faxrlanish tuyg`usi qalbimizni junbushga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Adabiyot.Darslik. Umumiy o`rta ta`lim maktablari uchun // Muallif . Q.Yo`ldoshev,V Qodirov,J.Yo`ldoshbekov. T- 2019- 95bet.
2. “ Ogohiyning ogohlighi “ .Maqola. “ Ma`rifat “ gazetasi. // Muallif .U.Bekmuhammad.T-2014.
3. “Barhayot meros sahifalari “ .Muallif. M Yunusov.T” O`qituvchi “ ,1986 –yil,79- bet
4. “ Ogohiyning ilmiy v aadabiy faoliyati” // muallif . Q.Munirov , T- “ Fan – 1963 yil,37-bet.



## SOCIAL DESCRIPTION IN AMERICAN SHORT STORIES

Айдаралиева Малоҳат

Ўзбекистон Давлат Жаҳон Тиллари Университети магистранти  
Телефон: +99893 544 28 51, [m\\_aydaralieva@mail.ru](mailto:m_aydaralieva@mail.ru)

**Abstract.** The challenges of the society in America had an essential influence on the short story writers' demonstration of main theme and concepts. Black woman writer **Alice Walker** tried to show the struggles and hardships of black women in her literary work “**Everyday Use**”.

**Key words:** Literature, genre, American short story, short story writers, social problems, Alice Walker, “Everyday Use”, cultural heritage

The literature of each nation is unique and if we want to get acquainted with the beliefs or mentality of a nation, we must refer to the literature of that nation, since writers write based on the worldview of their people. Therefore, it should be noted that fiction as a form of social consciousness plays an important role in the life and development of society. The work of art created in each period covers important aspects of the life of that period. A genre of *storytelling* has emerged in literature that serves the public good, enhances people's spiritual lives, and restores universal values. An American short story, its origin and evolution through centuries, plays an important role in the world literature and even is an example of a productive progress for many countries. It is necessary to consider some historical context and facts as well when analyzing the background of a particular genre. By the start of the twentieth century, the American short story was clearly established as a vital and vibrant genre with a wide readership. In the early decades of the century, the short story would become an important form for the development of a significant multicultural literature and for a remarkably wide range of literary experiments. American literature contains some of the world's best examples of the short story. Readers around the world enjoy the finely crafted stories of American writers such as *O. Henry, Stephen Crane, Jack London, Mark Twain, Edgar Allen Poe, F. Scott Fitzgerald, Ernest Hemingway, William Faulkner, Alice Walker* and many others. They produced their most complete works of literature in the short story form.

American strong civil rights activist and black woman writer **Alice Walker** tried to demonstrate the struggles and hardships of black women, the segregation and racial problems of Afro-Americans in her literary works, since she and her poor family faced such problems in her childhood. All schools in her hometown Eatonton were segregated, that is why Walker attended the only high school that available to blacks. One of the most outstanding and appreciate short stories of Alice Walker is “**Everyday Use**”. It was published in 1973 as a part of the writer's short story collection “*In Love and Trouble*”. The story comes in the early 1970s, a turbulent time when many African Americans struggled to redefine and regain control of their social, cultural, and political identity in American society. The story highlights the aspects of *African heritage* that have survived slavery for centuries and still exist in African American culture. The title of the story “**Everyday Use**” also has an important impact on the reader. What can be “used in everyday”? The significant point of the title appears in that the things we most value are the things we daily used. In the story, the title symbolizes *the quilts together with culture*. In “Everyday Use”, there are several themes are demonstrated, such as: *race, heritage, family conflict, cultural roots and traditions*. The story is told by the mother (“*Mama*”)-*first person narrator*, an African-American woman who lives in Deep South with one of her daughters. A mother tries to cope with changing times and her two daughters who are completely different. The story follows the difference between *Mrs. Johnson* and her shy younger daughter Maggie, who both still adhere to traditional black culture in the rural South, and her educated, successful daughter *Dee*, or “*Wangero*” as she prefers to be called, who takes a different route to reclaiming her cultural identity. The word **heritage** in the story is considered into two ways. One meaning of legacy is family things or contemplations which came from predecessors so this meaning have a place to Maggie and her mother characters in this story which leads to the readers family legacy in this story setting meaning and on the contrary, the moment meaning of legacy is convictions, things or thoughts are to be recorded in history which are considered here African-American legacy which have a place to Dee character in this think about of story



so there are two important approaches for legacy which talks about here through support of this story characters. Dee’s mother remained near to prompt family conventions, whereas Dee herself chose to look more profoundly into her African roots. Dee features a diverse mentality; she does not have the same ideals as Mother and Maggie. Dee (Wangero) as it were needs the family legacies to show in her home for their “artistic value”, while Maggie and her mother cherish these things since they “remind them of their adored ones.” In Mama’s mind, Maggie learning to form her own quilt and putting it to “everyday use” is protecting the culture. On the other hand, Dee accepts the correct way to protect her culture is to show the quilt in her home and preserve the quilt itself. Through Dee, “Everyday Use” explores how education affects the lives of people who come from uneducated communities, considering the benefits of an education as well as the tradeoffs. According to Alice Walker education can be, in certain ways, helpful to individuals.

This story, which is an integral part of the author’s work, is sure to make the reader think deeply. The story clearly describes the bitter history of African Americans, the difficulties they faced, and yet the role of education and culture in their lives. I consider that the protagonist’s inner experiences, her attitude towards her daughters, family conflicts, the value of cultural heritage are convincingly portrayed in the short story because the writer relies on her own life experience and writing ability.

#### The list of literature

1. May, C. *Nature of Knowledge in Short Fiction*. Miles R, 1998.
2. Scofield, Martin. “The Cambridge Introduction to the American Short Story”. Cambridge, UK: Cambridge University Press, 2006.
3. Hoel, Helga (1999). “”Personal Names and Heritage: Alice Walker’s” Everyday Use””. *American Studies in Scandinavia*



## OGAHİY LIRIKASIGA FOLKLORNING TA'SIRI

*Djo'rayeva Dildoraxon Ne'matjonovna*  
*Oltiariq tumani 31-maktab*  
*ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*  
*tel: 911079623*

**Annotatsiya:** Maqolada Xorazm adabiy muhiti vakili Ogahiyning adabiyotimiz tarixiga qo'shgan hissasi va shoir lirikasiga folklorning ta'siri masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm adabiy muhiti, o'zbek mumtoz adabiyoti, folklor, Pari obrazi, lirik qahramon.

XIX asr o'zbek adabiyoti, Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Muhammad Rizo Ogahiy adabiyotimiz tarixida o'zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan zabardast shoir, tarixchi va tarjimonidir. So'z san'atining dastlabki namunalari qadim zamonlarda dunyoga kelib, unda insoniyatning porloq kelajak haqidagi orzu niyatlari turli mifologik obrazlar orqali aks ettirilgan. Ibtidoiy odamning o'ziga sirli ko'ringan tabiatni bilishga intilishi natijasida dastlabki mif va afsonalar yaratilgan bo'lib, ularda mifologik obrazlarning ilk namunalari o'z aksini topgan. Miflarda yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar mujassamlashgan, shuning uchun ko'pgina mifologik obrazlar ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash fonida gavdalanadi.

Ogahiy ijodida ham Pari obrazi xalqning qadimiy tasavvurlari bilan bog'liq. Uning paydo bo'lishi, o'zbek she'riyatiga kirib kelishi, ma'no qirralarining rivojlanishi bevosita xalq mifologiyasiga borib taqaladi. Ma'lumki, shomonistik folklorda parilar Ko'hi Qof yoki Bog'i Eramda maskan tutib, insonga va inson unga oshiq bo'lishi tabiiy hol sanaladi. Ular o'ch olishi, boqiy yashashi, san'atni sevishi, ko'zdan g'oyib bo'lishi, ba'zan insonga shikast yetkazishi, aqldan ozdirishi mumkin.

Ma'lumki, olim A.Afanasev qadimgi slavyan xalqlarida tabiat hodisalari (yomg'ir, shamol) ning homiylari pari yoki suv parilari ekanligini ta'kidlaydi.

Ogahiy lirikasida ham uning lirik qahramoni xayolan o'z mahubasi bilan so'zlashadi. Unga maftunlikdan parishon bo'lgan ko'ngilning bunday suhbatini e'tiroz tug'dirmaydi:

Chu deding telba ko'nglung kimgadur shaydou oshufta,

Eshitkil, ey pari paykar, sangodur bu, sangodur bu.

Shaydo va oshufta oshiq samoviy yuksaklikdagi ko'ngil intilishlaridan mamnun. Uning ma'naviy-ruhiy olami nihoyatda go'zal. SHuning uchun ham u ruhiy olamning sirli teranligini, mo'jizakor qudratini, "tafakkur boshi aylanib" – ko'ngil telbalik ixtiyor etganini, bularning barchasi mahbuba tufayligina ekanligini faxr va iftixor hissi bilan e'tirof etadi. Yuqoridagi bayt badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi jihatidan ham alohida e'tiborga molik bo'lib, unda "badiiy tasviriy vositalarning eng ko'p uchraydigan xilidan bo'lgan lafziy san'atlardan biri takrorga murojaat qilingan. Takror she'rda u yoki bu so'zni takrorlashni nazarda tutib, shoir misra yoki bayt tarkibida muayyan so'z yoki so'z birikmasini bir necha bor yangi maqsadlarda takrorlanishi mumkin. Bu san'atning asosiy xususiyati takrorlash vositasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatishdir. Ogahiy mazkur baytda "sangodur bu" jumlasini takror qo'llash orqali oshiqning mahbubaga bo'lgan otashin sevgisini bo'rttiribroq tasvirlashga harakat qiladi. Shu bilan birga, takror lirik qahramon qiyofasini yorqinroq gavdalandirish, uning dil dardlarini ta'sirliroq mujassamlashtirish vazifasini bajaradi.

Ogahiy mumtoz adabiyotimizning tasavvufiy mantig'ini chuqur anglab yetgan va an'anani ijodiy davom ettirgan. Aytish mumkinki, yuqoridagi baytlarning yuzaga kelishida na-faqat an'anaviy she'riyat balki shu bilan bir qatorda Xorazm folklori, turli davrga xos ishonch-etiqodlar, xalq an'ana va udumlarini yaqindan bilishlik ham muhim rol o'ynagan. Lirik qahramon xatti-harakati va ruhiy holatida aql-idrokning unchalik amaliy xarakter kasb etmasligini esa, Ogahiy birmuncha ibtidoiy davr e'tiqodlariga, shomonlik udumlari zavol topmagan an'analarga tayanganligini ko'rsatishi jihatidan ibratlidir.

Ul pari ishq aro jonbozlar ko'pdur, vale

Pokboz ermas biri bu oshiqi miskin kibi.



Parivash yor surati bilan o‘ziga uchragan har bir kishini azobga giriftor qiladi. Uning go‘zalligi qoshida ne-ne oshiqlar aqlu hushidan judo bo‘lib, kecha-kunduz ohu fig‘on chekishadi. Baytda keltirilishicha, ularning hech biri halollik, pokizalik va sadoqatda lirik qahramoncha emas. Ushbu o‘rinda parining pokiza va halol kishilarga yo‘liqishi haqidagi xalq tasavvurlariga tayanilgan holda, oshiq sadoqatda yagonalik ramzi sifatida ulug‘langan.

Ogahiy lirikasida pari obrazi bilan bog‘liq ayrim o‘rinlarda yor paridan ustun qo‘yiladi. SHoirning tasavvuricha, ma‘shuqa go‘zalligi qoshida parilar yoqa ushlab qolishadi.

Xulosa qilib aytganda, mifologik obrazlar xalq dunyoqarashi, e‘tiqodlari, etnografiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning og‘zaki shakldan yozma shaklga siljishini kuzatish, ogahiyona poetik talqinlarini tadqiq etish o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining barcha bosqichlarida, xususan, XIX asrda ham folklor bilan uzviy bog‘liqda taraqqiy etganini ko‘rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdug‘ofurov A. Muhammad Rizo Ogahiy. A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, T., 1999.
2. Afzalov M. Xalq ertaklarining tasnifi. O‘zbek xalq ijodi. Toshkent. Fan, 1967.
3. Ogahiy. Ishq ahlining tumori. Tanlangan asarlar.T., 1999.



## “XAZOYIN UL-MAONIY”DA HUSAYN BOYQARO TALQINI

*Ma'murova Nilufar Raxmatullayevna  
Farg'ona tumani 28-maktab  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
e-mail:ma'murova@inbox.uz*

**Annotatsiya:** maqolada Alisher Navoiy lirikasida, Navoiy ijodida Husayn Boyqaro bilan bo'lgan munosabatlar va ularning ijodda aks etishi kabi masalalarga e'tibor qaratilgan

**Kalit so'zlar:** Husayn Boyqaro, katta-katta lirik parchalar, ulkan davlat, elparvar

Alisher Navoiy lirikasida shoir shaxsiyati, zamon va zamondoshlariga bo'lgan munosabatlari ham o'z aksini topgan. Chunki Navoiy ijodi o'z davri siyosatidan, falsafiy dunyoqarashidan hech qachon uzoq bo'lmagan. Xususan, shoir she'riyatida Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi munosabatlar juda ko'p qirralari bilan namoyon bo'lgan. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida, “Majolis un-nafois”, “Lison ut-tayr” va boshqa asarlarida Husayn Boyqaro madhiga maxsus boblar, katta-katta lirik parchalar bag'ishlaydi. Ularda ulkan davlatning elparvar, dono va adolatli hukmdori sifatida ta'rif-tavsif etadi. Buning boisi, albatta, Husayn Boyqaroni komil podsho timsoli sifatida ko'rish istagi edi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Ana shu istak “Xazoyin ul-maoniy”dagi g'azallarda ham o'z ifodasini topgan.

Husayn Boyqaro madhi va ta'rif-tavsifi bilan bog'liq g'azal va baytlarda “Xazoyin ul-maoniy” debochasidagi singari ko'proq ko'tarinki ruh mavjud. Ya'ni ularda Husayn Boyqaroni adolatparvar va saxovatli, ma'rifatparvar hukmdor sifatida madh etish kuchli. Shuningdek, “Xazoyin ul-maoniy”da Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi biografik o'rinlarni yorituvchi g'azallar va baytlar alohida o'rin egallaydi. Xususan, ko'pchilik g'azallarda Husayn Boyqaroning Alisher Navoiy she'rlarining islohotchisi sifatidagi fazilatlarini ham o'z ifodasini topgan. Shulardan kelib chiqqan holda Husayn Boyqaro haqidagi g'azal va baytlarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Husayn Boyqaro adolatparvar shoh sifatida madh etuvchi g'azal va baytlar.
2. Shoh va shoir o'rtasidagi munosabatlar ifodasi bo'lgan g'azal va baytlar.
3. Husayn Boyqaroning zukko she'rshunos sifatidagi fazilatlarini aks ettiruvchi g'azal va baytlar.

Alisher Navoiy deyarli barcha g'azallarida adolatli va ma'rifatparvar podsho hamda markazlashgan davlat uchun kurash g'oyasini ilgari suradi. Navoiyning fikricha, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti, yurt osoyishtaligi, avvalo, hukmdorning o'ziga, uning shaxsiy fazilatlariga bog'liq.

Navoiy Husayn Boyqaro hokimiyat tepasiga kelgandan keyin yozgan deyarli barcha asarlarida, lirik she'rlarida uni adolatli, vatanparvar shoh, adabiyot va san'at, ilm va hunar ahliga saxovatli homiy sifatida qayta-qayta madh etadi, ta'rif-tavsif qiladi, u bilan faxrlanadi. Bu ta'rif-tavsiflarda haqiqat ham, mubolag'a ham mavjud. Navoiy bu o'rinda bir tomondan, shohning ijobiy fazilatlarini ulug'lasa, qo'llab-quvvatlasa, ikkinchi tomondan hukmdor xarakteridagi ayrim salbiy qirralarni maqtov yo'li bilan bartaraf etishga intiladi. Navoiyning fikricha, shoh G'oziyning fazilatlarini behisob. Navoiy ta'kidlashicha, faqat Husayn Boyqarogina “shohlik tarkin qilib”, darveshlarcha hayot kechirmoqqa hamma vaqt tayyor bo'lgan birdan bir podshohdir. Shohlik Husayn Boyqaroning “suvrati”gina xolos. Uning “siyrati” (ichki dunyosi, fazilatlarini) esa darveshlikdir:

Mumkin ermas shohlar ichra bo'yla niyatlig', magar,  
Shohi G'oziy kim, muyassar bo'ldi bu davlat ango.  
Shohlar darveshi, darveshlar shohiki bor,  
Shohlik suvrat anga, darveshlik siyrat anga.

“Shoh va darvesh” (shoh va gado) masalasiga doir bu falsafiy g'azalda ham Navoiy Husayn Boyqaroni kamtar, adolatparvar va kambag'alparvar bo'lgani uchun ham shunday martabayu davlatga erishganligini ta'kidlaydi. Ta'kidlaydigina emas, balki elparvar, adolatli hukmdor bo'lishga targ'ib ham etadi. Navoiy mamlakatni zakovatli, adolatli, olijanob podshoh boshqarishi kerak, deb hisoblaydi. Ana shunday dono va odil podshoh Husayn Boyqarodir. Shoh G'oziyning adolatidan zulm eshigi hamisha berkdir. Ya'ni, Sulton Husayn mamlakatni hech qachon zulm bilan boshqarmaydi:



Ey Navoiy, ermas ul zot ko‘zi uyqudakim,  
Zulm eshiga Shohi G‘oziy adlidin masdud erur.

Shohning odilligi tufayli uning dargohi beva-bechorayu faqirlarga, barcha hojatmandlarga panoh, xonlarga esa sig‘inadigan joy bo‘ldi. Shuning uchun Shoh G‘oziy eshigini Tangrining o‘zi qo‘llasin:

Shohi G‘oziy eshigin tengri base tutsinkim,  
Notavonlarga panoh o‘lduyu, xonlarga maloz.

Husayn Boyqaro birinchi galda faqirlarning boshini silaydigan adolatli podshoh bo‘lganligi uchun ham unga shunday davlat va daraja nasib etgan. Osmondek ulug‘ martabaga erishgan Sulton Husayn Boyqaro Navoiyning ham ohu-dodlariga yeta oladi:

Navoiy ohi navosozi shoh Abulg‘oziy,  
Sipehr martaba Sulton Husayn Boyqaro.

Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari adabiyotshunoslikda ko‘p vaqt bir tomonlama o‘rganib kelindi. Ular o‘rtasidagi ziddiyatlar ba‘zan kuchaytirib talqin etildi. Bu masala xususida juda ko‘p adabiyotshunos olimlarning tadqiqot va maqolalarida fikr yuritilgan. Xususan, bu masalaga oydinlik kiritishda professor A.Hayitmetov “Navoiyning forsiy maktublari” maqolasi xarakterlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent, 1993.
2. Karimova F. “Xazoyin ul-maoniy”da Husayn Boyqaro talqini / Navoiyga armug‘on. 3-kitob. Toshkent, 2003.
3. Karimova F. Debochalarda Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari in‘ikosi / Navoiyga armug‘on. 4-kitob. Toshkent, 2004.



## BADIIY ADABIYOTDA TIL XUSUSIYATLARI

*Ahmadaliyeva Munajat Ismoilovna*  
*Qo'qon shahar 3-maktab*  
*ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*  
*e-mail:ahmadaliyeva@inbox.uz*

**Annotatsiya:** maqolada badiiy adabiyotda til xususiyatlari, ijodkorning til sohasidagi san'atkorligi, so'z va iboralarni mohirona qo'llash kabi masalalarga e'tibor qaratilgan

**Kalit so'zlar:** badiiy adabiyot, til xususiyatlari, obraz, umumxalq tili

Badiiy asar yaratish borliqni badiiy obrazlarda idrok etish va qayta yaratish jarayoni bo'lib, san'atkor zimmasiga umumxalq tili boylik va imkoniyatlaridan oqilona va unumli foydalanishi mas'uliyatini yuklaydi. Zero, umumxalq tili fikrni rang-barang bo'yoq va shakllarda ifodalash imkoniyatini yaratuvchi bitmas-tuganmas xazinaki, uning javohirlaridan har bir yozuvchi o'z kuzatuvchanlik qobilyati, falsafiy mushohadasi va badiiy mahorati doirasi hamda darajasida foydalanadi.<sup>1</sup> Ijodkorning til sohasidagi san'atkorligi birinchi galda shunda namoyon bo'ladiki, u keng iste'moldagi so'z va iboralarni mohirona qo'llash bilan bir qatorda xalqning ilg'or, peshqadam vakili sifatida umumxalq tili boylik va imkoniyatlarini muntazam ravishda kengayтира boradi. O'z tili materiallari asosida yangi so'z va iboralar yaratadi, har xil diallektlarda va, umuman, og'zaki nutqda mavjud bo'lib, adabiy – yozma nutq boyligi hisoblanmaydigan ayrim leksik va frazeologik birliklarni umumxalq tiliga olib kiradi, til birliklarini o'zga sharoitlarda qo'llash yo'li bilan ularga yangi ma'no va vazifalar yuklaydi.

Malumki, badiiy nutq kommunikativ va shu bilan birga, estetik vazifani bajaradi. Badiiy uslubning boshqa uslublardan ajralib turadigan belgisi uning estetik vazifasi, obrazlilik va ekspressivligidir. Bu narsa uning sintaktik qobig'ini ham belgilaydi. Bunda umumxalq tiling boy sintaktik imkoniyatlaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati muhimdir.

Adabiy asar tilining poetikligi, obrazlilik, tasviriyligi asar g'oyasini, qahramon ruhiyatini, xarakterini jozibali qilib ochishga xizmat qiladi. Bundan faqat maxsus badiiy tasvir vositalarini qo'llash orqali asar tilining obrazlilikiga, tasviriyligiga erishilar ekan, degan bir yoqlama xulosa chiqarish to'g'ri emas. Chunki adabiy asar tilida o'z o'rnida topib ishlatilgan oddiy so'z va iboralar ham xarakter va manzaralarni aniq ifodalay oladi, binobarin, bunday so'z va iboralar ham tasvir vositasi rolini bajaradi.

Badiiy asar muvaffaqiyatini ta'minlashda sintatik-stilistik vositalar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Badiiy adabiyotda ifodali nutq vositasi sifatida muhim ro'l o'ynaydigan, mazmunan stabillashgan nutq oboro'tlari sintaktik-stilistik figuralar deyiladi<sup>2</sup>.

Sintaktik stilistik figuralar ifodali nutqning shunday vositalari sanaladiki, ular vositasida tuzilgan nutq shakli to'liq, bir butun sintaktik konstruksiyadan iborat bo'ladi. Bu esa ularning eng xarakterli umumiy belgisidir.

Sintaktik-stilistik figuralar badiiy adabiyotda ifodalilik hosil qiluvchi va ma'lum bir uslubiy vazifa bajaruvchi intonasion-sintaktik usullardandir. Sintaktik-stilistik figuralar nutqning emotsionalligini oshirishga yordam beradigan maxsus sintaktik oborotlardan iborat bo'lib, ularga parallelizm, takror va uning utrlari, antiteza, inversiya ellipsis, gradatsiya kabilar kiradi<sup>3</sup>.

Sintaktik-stilistik figuralarni aniqlash stilistikaning eng muhim masalalaridan biridir. Bu masala dastlab adabiyotshunoslarning diqqatini tortgan. Sintaktik-stilistik figuralar ritorikaga oid adabiyotlarda poetik sintaksis elementi sifatida izohlanadi. Bu figuralarning boshqa nutq uslublarida ham ma'lum bir uslubiy vazifani bajarish imkoniyati ularning faqat poetik nutq sintaksisi uchungina emas, balki boshqa nutq uslublari uchun ham xarakterli ekanini ko'rsatadi.

Matn va yozuvchi uslubi, aniqrog'i, yozuvchi uslubining matnni tashkil etgan til va nutq birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosligi masalasi ham matn lingvistikasi uchun qiziqarli materiallar beradi. Zero, til badiiy asar komponentlari orasida yozuvchi uslubini eng yaqqol ko'rsatuvchi

<sup>1</sup> Musayev Q "Ayajonlarim" komediyasiga tiliga doir mulohazalar// O'TA,1984. 4 – son . 38 – bet

<sup>2</sup> Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil.-T.,1995. 40-bet.

<sup>3</sup> Shomaqsudov A., Rasulov I. O'zbek tili stilistikasi. –T., 1983. 230-bet.



omillardan biridir. Bu o‘rinda akademik I.Sultonning quyidagi fikrlarini keltirish joiz: “Tilni adabiy asarlarning shakli tarzida tafsiv etuvchi adabiyotshunoslar bor. Ammo bunday nuqtai nazar bir jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa ham, tilning badiiy asardagi ro‘lini to‘la tafsivlab berolmaydi. Adabiy asarning shakli faqat uning tili bilan syujet, kompozitsya va boshqa ko‘pgina komponentlar ham kiradi. Chunki badiiy asar ana shu komponentlarsiz maydonga kelmaydi. Ammo badiiy asarning hamma komponentlari faqat til orqali ifoda etiladi. Shuning uchun ham tilning badiiy asardagi ro‘li beqiyosdir.”

Ma’lumki, nasriy asar aksar hollarda muallif nutqi va personajlari nutqidan, shuningdek, faqat muallif nutqidan iborat bo‘ladi va nutqning mazkur ko‘rinishlari badiiy asarda tabiiy ravishda o‘rin almashinib turadi. Shu o‘rinda aytish lozimki, personajlar nutqi ko‘p hollarda dialaog shaklida bo‘lganligi sababli matn ko‘proq muallif nutqiga xos bo‘ladi. Yozuvchining o‘ziga xos ifoda usuli mana shu nutq parchasi bo‘lgan matnni yaratishda, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham nasriy asar tilini tadqiq qilishda har qanday matnni emas, yozuvchining ifoda usulini ko‘rsata oladigan xarakterli nutq parchalarini tanlab olish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. T.: Fan. 1982.
2. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilisikasi. T.: O‘qituvchi, 1992.
3. Qosimova M. Badiiy nutq individualligining lisoniy asoslari. NDA, 2007.



## ZULFIYA ISROILOVA IJODIDA POETIK TAHLIL

*Jurayeva Mohlaroyim Elmurodjon qizi*  
*Toshkent Davlat Yuridik*  
*Universiteti 2-bosqich talabasi*  
*mohijurayeva08@gmail.com*

**Annotatsiya:** Zulfiya she'riyatida lirika bilan publitsistik ruh o'zaro chambarchas bog'langan. Unda hayotga, insoniyatga, ezgulikka muhabbat tuyg'usi ufurib turadi. Shoira ijodiy merosi o'z davridan to shu kungacha adabiyotshunoslar, so'z san'ati ixlosmandlari diqqat markazida bo'lib kelgan. Zulfiya hayoti va ijodi metodistlar tomonidan alohida tadqiqot obyekti qilib olinmagan. Holbuki, shoira hayoti va ijodini, adabiy merosini o'rganish va unda ilg'or ta'lim texnologiyalaridan, samarali usullardan foydalanish e'tiborga molik bo'lgan vazifalardan biridir. Shoira badiiy mahoratini o'rganish uning ijodiga xos nozik qirralarini anglashimizga yordam berishi shubhasizdir.

**Kalit so'zlar:** she'riyat, ijodkorlik, yaratuvchilik pozitsiyasi, lengvopoetik usul, badiiy o'xshatmalar, metaforalar, tashbeh.

XX asr o'zbek adabiyotida Zulfiyaning o'z o'rni bor. Istiqlol yillarida tariximizga, ma'naviy merosimizga munosabat tubdan o'zgardi. Mustabid tuzum davrida toptalgan milliy-adabiy qadriyatlarimizni tiklash borasida qator ishlar amalga oshirildi. Shoiramiz Sho'rolar zamonida og'ir kunlarni boshdan kechirdi, ammo insoniyligini yo'qotmadi, e'tiqodida sobit turdi, qiyinchiliklarga qarshi mardona kurashib, ijodkorlik, yaratuvchilik pozitsiyasidan chekinmadi. Shoiraning aksar she'rlari shaxsiy kechinmalari, qalb tug'yonlarining nidosi, o'z umrining parchalari, ammo uning shaxsiyatining tor qobig'ida qolib ketmadi. Barcha zamonlarda ham birday sanalgan insoniy tuyg'ularni tarannum etib, kitobxon ma'naviy-estetik dunyosini boyitishga xizmat qilmoqda. Biz shundan kelib chiqqan holda, maqolada o'zbek xalqining sevimli shoirasi Zulfiyaxonimning ijodini lengvopoetik usullarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Zulfiya bizga juda katta ijodiy meros qoldirdi jumladan: "Xotiram siniqlari", — "Qizlar qo'shig'i", (1938) — "She'rlar" 1939, — "Hijron kunlarida" 1944, — "Dalada bir kun" 1948, — "Tong qo'shig'i" 1953, — "Yuragimga yaqin kishilar" 1958, "Kuylarim sizga" 1965, — "O'ylar", — "Shalola", "Quyoshli qalam" (Oybekka bag'ishlangan) "Mushoira", — "Xotira siniqlari" 1995, "O'g'lim sira bo'lmaydi urush" 1954, — "Tun" 1944, "Hijron", — "Oydinda", — "Mening vatanim", "Bahor keldi seni so'roqlab" — "Ko'rganmiding ko'zlaringda yosh", — "Zootexnik qiz" — "Cho'pon", — "Sen qaydasan yuragim", — "Nebaloga etding muftalo!", — "Sensiz", — "Oydinda", — "Lobar qizlarga", — "Bog'lar qiyg'os gulda", — "Men o'tgan umrga"... kabi bir qancha she'riy to'plam, poema va she'rlar yaratdi.

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,  
Hech kimda ko'rmayman umrimga o'xshash:  
Suydim,  
Erkalandim,  
Ayrildim,  
Kuydim.  
Izzat nima bildim.  
Shu-da, bir yashash!

"Tabassum o'rnida kuldim charaqlab, Suyish kerak bo'lsa — telbacha suydim" ga qaratiladi va "Shu satrlar mazmuniga tayanib shoiraning o'tgan umriga achinmay qo'ygani sabablarini aniqlang" topshirig'ini beradi. Gap shundaki, talabalar darslikdagi shoira Zulfiya haqidagi biografik matndan o'qib bilganlari qanchalik haqiqat ekanini o'zlari uning bitiklariga asoslangan holda anglab etishlari kerak. Odamning yozganlari, ko'pincha uning shaxsiyatini ochib beradi. Faqat she'rxon yozilganlarning mohiyatiga kira bilish kerak. Talabani bunga to'g'ri tashkil qilingan adabiyot darslari o'rgatadi. Ma'lumki, insonga Alloh tomonidan berilgan ne'matlarning eng oliysi — sevishtirilish. Hayot ne'matlaridan imkon qadar ko'proq lazzatlanib yashash. She'r muallifi bir inson sifatida har ikkisiga ham munosib topilgan. "Tabassum o'rnida charaqlab" kula oladigan darajada baxtli bo'lgan, majnunsifat sevgan, shunga yarasha sevilgan.

Hayotida baxtdan mast bo'lib yashagan inson uchun moddiy narsalarning ko'pda ahamiyati



yo‘q. Shaxsiy hayotdagi ma‘naviy to‘kislik va baxt mahsuli o‘laroq u har tongda insoniyatga yangi qo‘shiq hadya etib yashadi. So‘z san‘atkorlari o‘z xalqining elchisidir. Ular inson fazilatlarini, orzu armonlarini o‘z o‘quvchisiga, o‘z muxlislariga, kelajak avlodlarga yetkazib beradilar. O‘zbek xalqining sevimli shoirasi Zulfiya ham ana shu toifaga kiruvchi ijodkorlardan biridir. Chunki, uning sermazmun sh‘riyatida xilma-xil hayotiy, insoniy tuyg‘ular, fikrlar, g‘oyalar ifodalanadi. Shu bois, uning she‘riyati o‘z muxlislarini rom etib kelgan. Ayniqsa, maktab o‘quvchilari bu shoiraning nomini yaxshi bilishadi.

Eng kichik giyoh ham nazdimda uyg‘oq

Faqat el-elatni sukutda ko‘rdim.

Zo‘ravonliklarga qarshi dilda tug‘yoni toshgan lirik qahramon dard-alamlaridan hamir qorayotganga o‘xshaydi. Xotira siniqlariga aylangan fig‘on kulchalarini ulashayotgandek tuyuladi. “Xotiram siniqlari” Zulfiyaning millatni uyg‘oqlikka, kurashchanlikka da‘vat etuvchi o‘tli nidosi. Ana shu tuyg‘ular tahlilidan bugungi kunlar shukronasi, milliy istiqoldan g‘urur tuyg‘ulari sizib chiqayotganligini tuyish mumkin. «Hijron kunlarida» kitobi bilan o‘zbekning uyida shoira tug‘ildi, ayol zotining fidoyilik va bardosh, jasorat va nazokat, umid va o‘kinch to‘la sadosi bo‘lib shoira dunyoga keldi va dunyoga kelgan kundan o‘zining boqiyiligini ta‘min etdi. Zulfiyani shoir qilgan o‘z dardli qismati va bu dardli qismat haqidagi samimiy va ehtirosli nidosi. Ulug‘lardan biri aytgan ekan: «Shoirni iztirob yaratadi va bu iztirob she‘riyat uchun quvonch bo‘ladi». Bu so‘zlar busbutun shoira Zulfiyaga taalluqlidir. Shoirani dunyoga keltirgan ulug‘ iztirob o‘z aksiyati bo‘lgan ulug‘ baxtni ham yaratdi. Bu ulug‘ baxt to‘la to‘kis xalq va she‘riyatnikidir.

She‘riyat olamiga har bir ijodkor o‘z qo‘shig‘i bilan kirib keladi. Zulfiya she‘riyatga Vafo qo‘shig‘i bilan kirdi. Va bu qo‘shiq ayol sadoqatining yuksak tarannumiga aylandi.

Bunda hayot — ilhom onlari

Qalamingdan to‘kilgan gavhar.

Gul bo‘yini olganda shamol

Rashkka to‘lib ko‘ngan u ko‘zlar.

Zulfiya ijodida poetik teranlik va ma‘naviy yetuklik yorqin sezilib turadi. Uning yuqoridagi she‘rda: “*Bunda hayot — ilhom onlari Qalamingdan to‘kilgan gavhar.*” – quyidagi misralarga e‘tibor beramiz. “*ilhom onlari*”, “*to‘kilgan gavhar*” kabi metaforalarni shoira qo‘llagan. Aslida hayot ilhom onlari emas va aksincha shoira misralarda o‘zining tuyg‘ularni yashirgan. Ya‘ni hayotning adoqsiz g‘amlarini, hijron va ayriliqni yengish uchun yolg‘izlikka qarshi ijod izmiga bo‘ysiganini ko‘rishimiz mumkin. “*to‘kilgan gavhar*” ushbu o‘xshatma aslida gavhar haqida emas aksincha shoira bunda yangidan yaralgan, yozilajak misralarni ko‘zda tutgan.

Zulfiyaning “Oydinda” she‘ri dasturda o‘rganish ko‘zda tutilgan boshqa she‘rlaridan mavzu nuqtai nazaridan ham, badiiy ifoda tarziga ko‘ra ham farq qiladi. She‘rda ko‘klamning yomg‘irdan keyingi tunlaridan birida yulduzlar charaqlagan osmon, olamni oqlikka o‘ragan oy, hayol kabi to‘zg‘in bulutlar go‘zalligini ko‘tarib hayajonga tushgan shaxsning kechinmalari, hayratlari aks ettirilgan. Bu asar shoira she‘riyati yo‘nalishining sertarmoqligini ko‘rsatish, uning hassos qalbi ifodasi bilan bevosita tanishish ma‘nosida oldin o‘rganilgan she‘rlaridan keskin farq qiladi. Zulfiya she‘riyati namunalarini o‘rganishga ajratilgan vaqtning ikkinchi soatida Oydinda” yoddan o‘qib berilishi kerak. She‘r o‘qilgach, talabani she‘rdagi ifodalarni talablar ko‘z oldida gavdalanitirishga urinishi lozim. Shunda talaba muallif holatiga tushadi. Uning holatiga tushmay turib esa, Zulfiya she‘riyatini his etishi mumkin emas. Shoira birinchi misralardan o‘zini to‘lqinlantirgan, lol qilgan manzarani so‘zlar vositasida chiza boshlaydi:

Jilib-jilmas to‘lin oy,

Bulut hayolday yengil,

Oy anhorda qulun toy,

Yaxlit oynaday bo‘lib,

Hovuzga yoyilgan u.

Ushbularni misralarga e‘tibor berarkanmiz, “*Oy anhorda qulun toy*” aslida oy hech qachon toy bo‘lolmaydi va misrada ko‘zda tutilgan ma‘no : oynning tanho ekanligi va shu o‘rinda biz oynning hilol ya‘ni yangi oynning ko‘kka chiqqanini sezishimiz mumkin. “*Yaxlit oynaday bo‘lib, Hovuzga yoyilgan u*” – oy akasining suvda mavjlanishi “oyna” ga qiyoslangan.

Zulfiya she‘rlarda badiiy o‘xshatmalar, metaforalar, tashbeh, qiyosiy ziddiyatlarni ko‘rishimiz mumkin. Uning ijodiy merosi tom ma‘noda, jumladan yosh-u qariga birdek barchaning qalblariga yetib boradi. Sof, samimiy, dilga yaqin misralar adabiyotda hali Zulfiya ijodini o‘rganish



kerakligini anglatadi. O`zbek adabiyotining yirik namoyondasi Zulfiyaxonim she`riyatida buyuk erk, buyuk baxt, vafo mavzulari bilan bir qatorda vatanparvarlik, ona tabiatning mohirona chizgilari, ona tuproq qo`shiqlari, onalik faxriyalariga keng o`rin berilgan. U ko`klam jarchisi, tong kuychisi butun hayotini, bilimini she`riyatga bag`ishlagan. Farzand kamolini dildan tilagan onaizor kechinmalarini haqqoniy tasvirlagan shoiraning she`rlarida yosh avlodning sog`lom, etuk va komil inson sifatida voyaga etishiga keng o`rin berilgan. Zulfiyaxonim qalbi pok, mehridaryo ayol, vafodor yor, sevimli beka sifatida o`zbek xotin-qizlarining yorqin timsoli. El sevgan shoiraning jarangdor ovozi, jo`shqin she`rlari hamon kitobxon qalbini hayajonga to`ldirib yangrab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Tosheva O. Taqdimot materiallaridan foydalanish usullari. // Til va adabiyot ta`limi. – Toshkent, 2012. 12-son.
2. To`xliyev B., Sarimsoqov B. Adabiyot (akademik litseylar uchun o`quv dastur). – T.: O`qituvchi, 2008.
3. To`xliyev B., Niyozmetova R. va b. Til va adabiyot ta`limining zamonaviy texnologiyalari. – T.: Toshkent, 2011



## ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA BADIY MAHORAT

*Mirzamurotova Munosibxon Mo‘yudinovna  
O‘zbekiston tumani 39-maktab  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi  
e-mail:munosibxon@inbox.uz*

**Annotatsiya:** maqolada Abdulla Oripov she’riyatida badiiy mahoratning namoyon bo‘lishi, she’rlarida mavzular ko‘lamining kengligi, shoirning lirikasi xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** shoir, she’r, shuur, badiiy mahorat, tasvir

Ma’lumki, adabiyotimizning tasvirlash imkoniyati juda katta. Unda jamiyat hayotida birlashish yasagan katta voqealardan tortib, o‘sha jamiyat a’zolarining turmush tarzi, urf-odati, ahloq normalarigacha aks etadi. Abdulla Oripovning bir qator she’rlari borki, ularda ba’zan oddiy, ko‘z ilg‘amas, bir qarashda uncha muhim bo‘lib ko‘rinavermay turli masalalar ilgari suriladi va badiiy-estetik tafakkur mahsuli bo‘lgan tushunchalar asosida o‘z mulohazalarini qayd qilib o‘tadi. Yozuvchi ijodi haqida so‘z yuritgan adabiyotshunoslar uning iste’dodli shoir sifatidagi faoliyatini va ijod va ijodiy jarayon haqidagi qarashlarini yuksak badiiy asar sifatida baholashgan. “Shoirni o‘stirib voyaga yetkazadigan qulay ijodxonalar yo‘q. U hayotning har xil sharoitida issiq-sovug‘i, baland-pasti, o‘nqir-cho‘nqiri, qing‘ir-qiyshiq joylaridan o‘ziga yo‘l topib o‘tadi va asta-sekin ijodkor sifatida shakllanadi. Shu manoda har bir haqiqiy shoirning tug‘ilib voyaga yetishi bamisoli Abdulla ta’riflagan o‘z yo‘lini o‘zi ochishi kerak bo‘lgan buloq”<sup>1</sup>, - deb yozadi. Iste’dodli ijodkor adabiyot va san’atning taraqqiyoti uchun katta mehnat qilgan bo‘lsada, biror o‘rinda ijod va ijodiy jarayonga noxolis yondoshmaydi. Shoirlik bu qismat ekaniga alohida urg‘u beradi. Ijokor badiiy mahorat haqida so‘z yuritarkan, hayot bilan yashayotgan jamiyat bilan bog‘liqligini alohida qayd qilib o‘tgan. Shuning uchun shoir yozadi: “Jannatga yo‘l” “Mushtum” jurnalida e’lon qilina boshlandi. O‘shanda, hatto shunday bo‘ldiki, maxsus odamlar Do‘rmonda – ijod uyida qo‘lyozmani yo‘qotib yuborishdi ham. Yoshlik ekan, xotiram kuchli edi, o‘n minglab baytni yod bilar edim. Jumladan , yo‘qolgan dostonni har bir so‘zini jurnal uchun qayta boshdan tiklab berdim. Qarangki, doston bosilib bo‘lgach yo‘qolgan qo‘lyozmani, maxsus idora xodimlari iltifotsizlik bilan bo‘lsa-da o‘zimga qaytarib berishdi”<sup>2</sup>. Shoirning bu dramatik dostoni chop etilgandan so‘ng asar haqida turli xil fikrlar bayon etilgan shoirning o‘zi qayd qilganidek, asar haqidagi bir yoqlama qarashlar osha davr uchun xos bo‘lgan xususiyat edi. Shuning uchun jamiyatimizdagi o‘zgarishlar badiiy adabiyotga ham o‘zini sezilarli ta’sirini o‘tkaza oldi. She’riyat kishi qalbiga eng avvalo, ruhiy tashnalik, cheksiz ehtiyoj, ajib bir sehr tariqasida kirib keladi. She’r inson ruhining bir muncha g‘ayritabiiy, ayricha holatidan tug‘iladi. Armonga, go‘zal iztirobga qondirilishi nihoyatda zarur bo‘lgan ehtiyojga aylanadi. Bu ehtiyoj chinakam shoirni umr bo‘yi taqib etadi. Shunday bo‘lsada, Abdulla Oripovdek ijokor adabiyot va san’atni e’zozlab yashadi. Bir qator ijodkorlar ilhom va badiiy mahorat, iste’dod haqida so‘z yuritishgan. Abdulla Oripov ham badiiy ijod jarayoniga o‘z munosabatini bildirgan zero, adabiy maqolalar, suhbatlar turli-tuman, anjuman va uchrashuvlardagi nutqlar ma’ruzalar ijodkorning butun badiiy olamini, uning ijodiy konsepsiyasini, printsiplarini ijod qonuniyalarini, ijodkorning jamiyatdagi o‘rni xususidagi qarashlarini tahlil qilishga, falsafiy mushohadalar asosida fikr bildirishga harakat qilgan. Shoirning bir qator maqolalarida ijod va ijodiy jarayon, badiiy mahorat kabi masalalarga to‘xtalar ekan, bu jarayonning murakkab qirralarini tahlil qiladi. shuning uchun ijodiy jarayoning o‘ziga xos tomonlarini buyuk so‘z san’atkorlari ijodi misolida tahlil qilishga intilgan.

O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston qahramoni Abdulla Oripov- tug‘ma istedod egasi. U - juda siyrak uchraydigan noyob, nodir shoir. Uning so‘z san’ati xazinasiga qo‘shgan hissasi bebaho. Hozirgi davrda uning she’rlari xalqimizni adolat tantanasi, yorug‘ kelajakka ishonch ruhida tarbiyalaydigan yuksak ma’naviy omil bo‘lib xizmat qilmoqda ” degan edi. A.Oripov ijodining fazilatlarini haqida adabiy tanqidchilik va adabiyotshunoslikda juda ko‘p fikrlar bayon etilgan. I Sulton, M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov kabi bir qator olimlarimiz A.Oripov ijodiga

<sup>1</sup> M.Qo‘shjonov, S. Meli. Abdulla Oripov. Monografiya. –Toshkent, Ma’naviyat, 2000. 12-bet.

<sup>2</sup> A.Oripov. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. To‘rtinchi jild. –Toshkent, 2001. 144-bet.



haqli ravishda yuqori baho berganlar. Akademik I.Sultonov shoir ijodini teran tahlil etib: “ A.Oripov she’riyatining eng muhim xususiyati odamlarni birlashtiruvchi kuch-qudratdir. Bu – haqiqiy she’riyatning eng ulug‘ fazilatidir”,-degan xulosaga kelgan edi. A.Oripov ijodiga jahonning boshqa millar yozuvchilari va olimlari ham yuksak baho berganlar. Mashhur bolqor shoiri Quysin Quliev o‘tgan asrning 60-yillardayoq: “ A.Oripov she’riyatida men fikrning salmoqdorligini, obrazlarning ohorli, quymaligini, o‘quvchini zeriktiruvchi tor ma’noli qizil so‘zlikdan ” xolilikni ko‘rdik. Yosh shoir so‘zning ifoda kuchini bexato sezadi, hayotni o‘z bo‘lishicha, uni o‘ziga xos yangi nazar bilan ko‘radi. A.Oripov lirikasida inson va tabiat talqini ana shunday falsafiy mazmunga ega. Shoir tabiatning o‘zgarib turuvchi avzoida hayotning azaliyligi, umrning ezguligini ko‘radi. Tabiat og‘ushidan umr, taqdir, ezgulik falsafasi sizib chiqadi. A.Oripov tabiat falsafasidan umrlar hikmatini o‘qiydi. Xususan, tabiat manzaralarida inson hayotining ma’nosini ko‘rarkan, shu asosda ular odam hayotida xos mazmun kasb etadi. Shoir poetik dunyosida tabiat hayotining asosida tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa insonga umr mazmunini eslatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент, “Ўзбекистон”, 2002. – 560 б.
2. Норматов У. Қодирий мўъжизаси. –Тошкент, “Ўзбекистон”, 2010. – 272 б.
3. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб. –Тошкент, “Ўзбекистон”, 2008. – 536 б.



## ADABIY TA'LIMDA TOG'AY MUROD QISSALARI ASOSIDA MILLIYLIK TASVIRI TAMOYILLARI

*Siddiqova Sohibjamol No'monjon qizi*  
*Bag'dod tumani 40-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*  
*tel: +99890 5082914*

**Annotatsiya:** maqolada Tog'ay Murod qissalaridagi milliylik tasvirining o'ziga xos xususiyatlari "Oydinda yurgan odamlar", "Ot kishnagan oqshom" asarlari asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** qissa, milliylik, an'ana va urf-odatlar, "Oydinda yurgan odamlar", "Ot kishnagan oqshom", badiiy tahlil.

Tog'ay Murod qissalarida voqealar va xarakter, milliyligi bilan asrlar davomida xalqimiz hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan qadriyatlarni jonlantirishi bilan xalq orasida katta shuhrat qozondi. Uning "Oydinda yurgan odamlar" qissasidagi butun umrini farzand orzusida yashab o'tkazayotgan farishtadek pokiza, nurga yo'g'rilgan bir juft qariyaga "Ot kishnagan oqshom" asaridagi Ziyodulla chavandozdan biror ruhiy holatning o'tishi mumkin emas. "Oydinda yurgan odamlar"ni o'qishingiz bilan sizni allaqanday sirli, sehrli oydin kecha bag'riga oladi. Ichingizga ajib bir nur o'rimalab kiradi, dillaringizni yoritib yuboradi. Tog'ay bir-birini bobosi, momosi, deya atab umr o'tkazayotgan bir juft oq kaptardek pokiza insonlarni oydinda, oy nuriga o'rab tasvirleydi. Oqibat, ushbu juftning o'zi ham, so'zi ham, fikri ham, turish-turmushi ham oying kumush nurlariga yo'g'rilib ketadi.

Yuqoridagi xotiralarni keltirish bilan biz yozuvchi faqat folklor asarlari asosida qissa va romanlar yaratgan ekan-da, degan fikrni ilgari surmoqchi emasmiz, balki yozuvchining har bir asarni yaratishga jiddiy tayyorgarlik ko'rganligini, o'zining tasvir ob'ektiga har tomonlama yondashganligini, folklor uning uslubiy izlanishlarida ko'pdan-ko'p badiiy omillardan biri bo'lib qolganligini alohida ta'kidlamochimiz. Chindan ham u o'zbek adabiyotida xalq dostonlari nasriga yaqin o'ziga xos tasvir yo'sinini yaratdi. Bir-ikki misollar keltiraylik: "Birodarlar, Momosuluv tushimda cho'lpon edi, hushimda oy edi, qo'ynimda oftob bo'ldi".

Yoki: «Birodarlar, necha-necha qorabayirlar ketiga qarab-qarab ketdi.

Necha-necha jayronlar kishnab-kishnab ketdi. Necha-necha samanlar go'sht bo'lib ketdi. Qishloqda otlar kishnamay qoldi. Saharlarda ko'chalarda ot tuyoqlari tikillamay qoldi. Oqshomlari otlar tarsillatib yer tepinmay qoldi. Adirlarda otlar dupur-dupur chopmay qoldi... Chavandozlar emchakdoshi urushdan qaytmagan bo'zbola misol mung'ayib qoldi».

Tog'ay Murod asarlari yillab yotsa-da, rost gapidan qaytmadi, amaldorlarga qulluq qilmadi, ulardan qo'rqmadi. Bu fazilatsiz asl adib hech qachon o'zini namoyon eta olmaydi. Qo'rqoq adibning so'zi esa sariq chaqaga arzimaydi! «Oydinda yurgan odamlar» qissasining qahramoni Qoplon: «Asl gaplar ko'ngilda bo'ladi. Tilga chiqsa yolg'on bo'ladi», deydi. Bu nihoyatda qalbi pok, mehr-muhabbati beta'ma kishining samimiy qarashi. Bu — Tog'ay akaning o'z qarashi. Shu bilan odamni, millatni qanday sevish kerakligi sirini ochgan. Odam muhabbatsiz yasholmaydi. Muhabbatini izhor etolmasdan ham yasholmaydi. Tog'ay Murod asarlari ana shu muhabbat bunyodidir. Shu muhabbat izhorining xushbo'y chamanzoridir. Qalbdan qalb-ga aytish yo'lini topgan, shu bois rost va yoniq ko'ngil pokliklari ko'ngilni maftun etadi. Ko'ngilni asir qiladi. Adibga boshqa hech bir shonu shuhrat, martaba va maqto'v kerak emasligini o'zim guvoh bir voqea misolida ham aytishning o'zni keldi. 1993 yilda Yozuvchilar uyushmasida «Yoshlik» jurnalida endigina chiqqan Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romani munosabati bilan bir tadbir o'tkaziladigan bo'ldi. Kecha kutilmagan tarzda boshlandi. Uni ochmoqchi deb o'ylaganimiz taniqli bir adibimiz minbardan turib: «Tog'aynikiga o'xshagan asarni biz ham yoza olamiz, yozganmiz ham...» dedi-da, davrani boshqarish o'rniga yig'ilishni tashlab, jo'nab qoldi. U go'yo shu bilan yig'ilishni «baykot» qilgan, hamma tarqab ketadi deb o'ylagan, balki bu asar gaplashishga arzimaydi, mening fikrim shu, demoqchi bo'lgandi... Ammo undan boshqa hech kim ketmadi, bir zumlik karaxtlikdan keyin davra qayta jonlandi, minbarda aytilishi uchun fikrlar ketidan fikrlar navbatga turdi. Ammo bu samimiy yurak so'zlarini mahalliychiligini yenga olmagan, xudbin va o'ziga bino qo'ygan yozuvchimiz eshitmagani kabi Tog'ay Murodning o'zi ham eshitgani yo'q. U yig'ilishga taklif etilganiga qaramay kelmagandi. Tog'ay aka rost gapni



aytib, e'tiqodini baralla izhor qilib, do'st orttirgan kabi dushmanlarini ham shundan ko'paytirganga o'xshaydi. Chin do'stlari, o'zbek kitobxonini balki unga xolis dalda bergan bo'lsa bordir, ammo moddiy yordam berishni xayoliga ham keltirmagani aniq, ammo so'nggi nuqtagacha qaysi sodiq va vafodor do'sti uning oldida «Yulduzlar mangu yonadi» qissasining bir o'rnidagi evrilish boisiga aql javob topolmaydi. Bo'ri polvonday vazmin, pahlavon kishining Tamaraxonim oldiga kelib, tarona qilganda, o'zini bilmay, aqli hushini yo'qotib, belbog'ini yechib go'zallik va qo'shiq poyiga to'shaydi. Haqiqatan ham kuy, qo'shiq kuylanayotgan holat favqulodda holat, cho'qqidagi xarsangni kuchli dovul jarga qulatishi hech gap emasday, odam ruhiyatini ag'dar-to'ntar qilishga kuchi yetadi. Yetuk asarning odamni lol etadigan lahzalarni kashf etadigan sinoatlaridan bittasi bu. «Ot kishnagan oqshom» asarining hikoyanavis qahramoni Ziyodulla kal — Ziyodulla chavandoz aslida o'lanchi, baxshi, hatto hayotda do'mbira sayratar oqin bir odam. U kuylab-kuylab, ovozim yetmay qolganda, do'mbira sotib oldim deb, o'zining ojizligidan ma'yus tortadi. Biroq bo'lak hunarlari 'tmaganda doston aytib odamning nazariga tushishga urinadi. Rosti ham, kuylay bilish odamning ko'rki, olamni jalb qila bilishgina emas, uni o'ylashga da'vat qilish hamdir.

Xulosa qilib aytganda, Tog'ay Murod oldiga har bir xalq va millat yashash sharoitlarining o'ziga xosligi bilan belgilanadigan xarakterli xususiyatlarni topa olish hamda badiiy aks ettirish vazifasini qo'yadi. Xalq hayoti, ruhiyati va xarakterining milliy xususiyatlarini aks ettirishi hayotni badiiy aks ettirishning zaruriy shartiga aylanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustamova M. Istiqlol davri o'zbek qissalarining taraqqiyot tendensiyalari: T.: 2005;
2. Xolmurodov A. O'zbek qissachiligi: taraqqiyot muammolari - T.: 2008;
3. Normatov U. Nasrimiz ufqlari. - T.: Adabiyot va san'at, 1974;



## ALISHER NAVOIY ASARLARINING MAKTAB O'QUVCHILARI UCHUN TARBIYAVIY AHAMIYATI

*Болтабаева Хатичахон Кутбиддиновна  
Наманган вилояти Уйчи туманидаги  
7-сонли умумий урта таълим мактабининг  
она тили ва адабиети фани уқитувчиси*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati va ularning o'quvchilarga ta'siri tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Navoiy, xalq, tarbiya, adabiyot, san'at, meros, olim.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va taffakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n -u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Sharq xalqlarining adabiyoti qanchalik chuqur o'rganilsa, bu xalqlar orasidagi adabiy aloqalar ham shunchalik ravshanroq ko'rina boradi. Adabiy aloqalarning o'rganilishi esa dohiy san'atkorlarning, adabiy maktab vakillarining ijodiy qudratini, ta'sir doirasini aniqlash uchun to'laroq tasavvur beradi. Bu jihatdan Navoiy merosini o'rganish alohida ahamiyatga egadir.

Navoiy merosini o'rganish yolg'iz o'zbek olimlarininggina vazifasi emas. Navoiy buyuk bir adabiy maktab boshlig'i sifatida dohiy Nizomiy kabi bir qancha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatganligidan uning ijodini o'rganish ham keng bir sohani tashkil etadi. Dunyo sharqshunoslari Navoiy merosini o'zbek xalqining adabiyotini o'rganish maqsadida tekshirsalar, sharq xalqlari tadqiqotchilari butun hayotini xalq baxt-saodatiga bag'ishlagan bu ulug' san'atkorning hayoti va ijodini o'z madaniyatlarini o'z adabiyotlari tarixini chuqur o'rganish, o'zaro mushtaraklik tomonlarini aniqlash maqsadida o'rganishgan. Chunki Navoiy tojik, eron, hind madaniyatida buyuk bir madaniyat homiysi sifatida mashhur bo'lsa, ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar, turk, qoraqalpoq xalqlari adabiyotida esa o'zining kuchli ta'sirini ko'rsatgan<sup>1</sup>.

Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakilidir. Chunki hech kim bu til va adabiyotning ravnaqi uchun uningdek xizmat qila olgan emas. Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilde bunchalik ko'p va xo'p (Bobur) yozmagan edi. Navoiy barcha xalqlarning eng buyuk shoiridir. Chunki u o'zini "Xito(y)dan to Xuroson" gacha yoyilgan turkiy qavmlarning o'z shoiri, deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog'i ostida birlashtirdi, "yakqalam" qildi. Bu bilan millatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy ravnaqiga buyuk ta'sir ko'rsatdi. Navoiy asarlarining umuminsoniy g'oyasi - insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, do'stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma'rifatlilik kabi go'zal tuyg'ularning yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o'zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o'zining umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo'li bilan bayon etdi. Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo'lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o'rgandi, asar qahramonlari obrazida o'z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo'lishga da'vat etadi hamda axloqni bunday ta'riflaydi: "Ahloq shaxsning og'ir baqolig' libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir". Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylilikdan afzaldir. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so'z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi:

Odami ersang demagil odami,

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami. Xalqqa yordam berishni istamaydigan, xudbin, qora ko'ngil odamlarni Alisher Navoiy eng yomon odam, xalqqa zarar yetkazadi deb ta'riflaydi.

El qochsa birovdin el yomoni bil oni,

Ahvolida idbor nishoni bil oni.



Fe'l ichra ulus bolam joni bil oni,

Olam elining yomoni yomon bil oni. Insonlar bir-birlari bilan do'st-inoq va hamjihat bo'lib yashamas ekanlar, o'z orzu-niyatlariga yeta olmaydilar, yakkalik, yolg'izlik bilan hech qanday ish qilib bo'lmaydi, shuning uchun ham u hamma insonlarni do'st bo'lib yashashga chorlaydi. Alisher Navoiy do'stlikni ulug'laydi, shu bilan birga soxta, g'araz bilan do'st bo'luvchi kishilarni qoralaydi. Navoiy ilm-ma'rifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan. Shoir insonning ma'naviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi bo'la olganligida deb biladi. Ilm o'zidan o'zi bo'lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo'la oladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy hikmatlarida olam- olam ma'no mujassamdir. Uning hikmatlarida ilm-ma'rifat, mehr-oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi.

Birovkim qilsa olimlarga ta'zim,

Qilur go'yoki payg'ambarga ta'zim. Shoir olim ahlini qadrlaydi, ulug'laydi. Olimlarga ta'zim qilish- payg'ambarga ta'zim qilish bilan barobar ekanligini ta'kidlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-tom. Xamsa. Saddi Iskandariy. T.: "Fan", 2002

2. Badriyev F., Xudoyberdiyev A. Alisher Navoiyning "Farhod va SHirin" dostoni haqida// Til va adabiyot ta'limi. 2011, 8-son.



## ALISHER NAVOIY MEROSIDA UMUMINSONIY TARBIYA MASALALAR

*Шарипова Сохибахон Косимжоновна  
Наманган вилояти Уйчи туманидаги  
7-сонли умумий урта таълим мактабининг  
она тили ва адабиети фани уқитувчиси.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk ajdodlarimizning qarashlari yoritilgan ta'sir qiladigan o'lmas madaniy va ma'naviy meros yosh o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash vazifalari yoritilgan. Ya'ni o'zbek adabiyoti asoschisi -A.Navoiy ijodidagi fikrlar umuminsoniy qadr-qimmat kabi fikrlarni bayon qildi, milliy urf-odatlar va g'oyalarning ma'nolari, falsafiy haqida qisqacha ma'lumotlar shoirning fikrlari, do'stlik, xulq-atvor va ta'lim mavzusiga ham to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** xulq-atvor, falsafiy qarash, adabiyot, asar, qadr-qimmat, tarbiya.

Respublikamiz mustaqilikka erishgandan so'ng xalqimiz hayotida ko'pgina tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Zero ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri yo'lga qo'ymasdan turib jamiyatni har tomonlama yuksak darajada rivojlantirib bo'lmaydi. Chunki jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan shu jamiyat a'zolarining qanchalik bilimli, ongli, axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Mustaqil respublikamizda o'tkazilayotgan islohotlarning muhim vazifalaridan biri ham axloqli, ma'rifatli, madaniyatli kishilarni tarbiyalashdan iborat. Bu vazifani amalga oshirish uchun pedagogik sohada Prezidentimiz I. Karimovning bevosita tashabbuslari bilan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilindi. Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda madaniy merosdan keng foydalanish milliy madaniyatimiz ravnaqida muhim o'rin tutadi. O'tmishdagi buyuk mutafakkirlarning dono fikrlari, o'g'itlari, tafakkur mevalari, ijodiy yutuqlarini o'rganish xalqimizning ma'naviy dunyosini kengaytiradi. Yosh avlodning barkamol inson bo'lib yetishishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda Sharq murafakkirlaridan biri bo'lgan Alisher Navoiyning merosini o'rganish, undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi.

Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o'zining umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo'li bilan bayon etdi. Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo'lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o'rgandi, asar qahramonlari obrazida o'z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy o'zi yashagan davrdagi insonlarning fe'l-atvorini uzoq sinchiklab kuzatdi. U o'z kuzatishlarini, ko'rgan-bilganlarini bir-biriga taqqosladi, ulardan tegishli xulosalar chiqardi. Alisher Navoiy "Mahbub-ul qulub" asarida quyidagilarni yozadi: "Har ko'cha-kuyda yuguribman va olam ahlidan har xil kishilarga o'zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe'l-atvorini bilibman, yaxshi-yomon xislatlarni tajriba qilibman, yaxshilik va yomonlikning asalini ham, zaharini ham totib ko'rdim. Xasislarni va karamlilar yetkazgan yara va bergan malhamni ko'nglim tagi-tugi bilan sezgandir. Bir xildagi hamsuhbat va do'stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogohlantirmoq lozim ko'rindiki, har toifaning xislatlaridan ma'lumotlari va har tabaqaning ahvolidan bilimlari bo'lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar".

Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo'lishga da'vat etadi hamda axloqni bunday ta'riflaydi: "Axloq shaxsning og'ir baqolig' libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir". Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Oltin, kumush etma kasb davlat kunidin, Kim tortar adab ulusni davlat tunidin, Gar yo'qdir adab ne sud oltin uni din, Elning adabi xushroq erur oltundin. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so'z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaatini uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi: Odami ersang demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami. Xalqqa yordam berishni istamaydigan, xudbin, qora ko'ngil odamlarni Alisher Navoiy eng yomon odam, xalqqa zarar yetkazadi deb ta'riflaydi. El qochsa birovdin el yomoni bil oni,



Ahvolida idbor nishoni bil oni. Fe'l ichra ulus bolam joni bil oni, Olam elining yomoni yomon bil oni. Insonlar bir-birlari bilan do'st-inoq va hamjihat bo'lib yashamas ekanlar, o'z orzu-niyatlariga yeta olmaydilar, yakkalik, yolg'izlik bilan hech qanday ish qilib bo'lmaydi, shuning uchun ham u hamma insonlarni do'st bo'lib yashashga chorlaydi. Alisher Navoiy do'stlikni ulug'laydi, shu bilan birga soxta, g'araz bilan do'st bo'luvchi kishilarni qoralaydi. Alisher Navoiyning asarlaridagi Farhod, Shirin, Layli, Dilorom, Qays, Shopur kabi ijobiy qahramonlar umuminsoniy tarbiya asosida tarbiyalanganlar, kamtarin, odobli, or-nomusli insonlardir. Bu qahramonlar orqali yoshlarni ulardan ibrat olishga chorlaydi.

Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o'z asarlarida har bir so'zdan unumli va o'rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo'ladi. Ulug' shoir o'zining ta'lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo'shdi, umuminsoniy fazilatlar to'g'risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y. 254-263 b.
2. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: O'qituvchi. 1997. 267-b.
3. Hoshimov K. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi. 1996. 265-b.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(8-қисм)**

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2020

**Контакт редакций научных журналов.** [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000